

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

BOTANIKA KAFEDRASI

“DAK da himoyaga tavsiya etildi”

Tabiatshunoslik va geografiya fakulteti
dekani _____ dots. Xo‘jamqulov B.
“ _____ ” _____ 2013 yil

BOYBUTAYEVA GULHAYO G‘OYIMNAZAROVNAning

**5420100-biologiya ta’lim yo‘nalishi
bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun**

**QASHQADARYO HAVZASINING TOG‘ ZONASIDA TARQALGAN
DORIVOR O‘SIMLIKLAR VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH
MUAMMOLARI**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: prof.S.M. Mustafayev

Bitiruv malakaviy ishi Botanika kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tdi.
№ _____ sonli bayonnoma « _____ » _____ may _____ 2013 yil

QARSHI – 2013 y

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. QASHQADARYO VILOYATINING FIZIK VA GEOGRAFIK TAVSIFI..	6
II BOB. QASHQADARYO VILOYATIDA TARQALGAN DORIVOR O‘SIMLIKLARNI O‘RGANISH TARIXI.....	14
III BOB. QASHQADARYO HAVZASIDA TARQALGAN DORIVOR O‘SIMLIKLARNING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	18
IV BOB. TABIIY O‘SIMLIK XOMASHYOLARINI YIG‘ISH, QURITISH VA SAQLASH BUYICHA TAVSIYANOMA.....	55
XULOSA.....	60
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	62

KIRISH

Qadim-qadimlardan butun dunyo xalqlari va jumladan, O'zbekiston respublikasi va viloyatimizda ko'plab dorixonalar kundan-kunga ko'payib borayotganligi, turli xil dori vositalarini xarid qilishga chiqarilayotganligi fikrimizga dalil bo'ladi. Ular orasida tobora kengroq o'rinni egallayotgan o'simlik vositalari va quritilgan organlarini ko'plab uchratish mumkin. Keyingi yillarda sintetik dori-darmonlar o'rnini egallamoqda edi. Ammo tabiiy shifobaxsh dorivor o'simliklar dorixonalar peshtoqlarini qaytadan egallamoqda.

Ma'lumki, har qanday sintetik dori-darmonlar organizmga zararli ta'siri ko'plab tilga olinadi. Chunki bir kasallikni davolash uchun ishlatiladigan sintetik dori boshqa bir kasallikni keltirib chiqarishi, zaharlashi yoki unga zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ammo dorivor o'simliklardan tayyorlangan tabiiy dori-darmonlar inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Dorivor o'simliklar aholi o'rtasida keng ishlatib kelinadi. Odamlar, ko'pincha, ularni yig'ib oladilar va ulardan uy sharoitida o'zlari dori tayyorlab oladilar. Bunday hollarda o'simlik tarkibida moddalar borligini, ularning kimyoviy xossalarini bilmasdan tayyorlangan dorilar foyda o'rniga zarar keltirishi mumkin.

Alohida ta'kidlash joizki, ayrim zaharli o'simliklar tashqi ko'rinishiga ko'ra dorivor o'simliklarga o'xshasada, ammo ularning organizmga ta'sirini bilmasdan dori sifatida foydalanish ayanchli oqibatlarni sodir bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayrim dorivor o'simliklar tarkibida kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar mavjud. Ulardan tayyorlangan dorilarda zaharli moddalar miqdori meyyordan ortiq bo'lishi va zaharlanishga yoki boshqa turli kasalliklarga olib kelishi mumkin. Bunday zaharli dorivor o'simliklarga misol tariqasida adonis, bangidevona, isiriq, ko'knor, mingdevona, qirqbo'g'im, qoncho'p kabilarni ko'rsatishimiz mumkin.

Dorivor o'simliklarni yig'ib olish muddatlarini bilishning ahamiyati nihoyatda muhim, chunki ulardagi ta'sir etuvchi biologik aktiv moddalarning miqdori ularning turli rivojlanish fazalarida turlicha.

Shu sababli dorivor o'simliklarni yig'ish va ularda kasalliklarni davolash uchun qo'llashga nihoyatda ehtiyot bo'lish zarur.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach xalq xo'jaligining bu sohasiga alohida e'tibor berilmoqda. Barcha bajariladigan ishlar singari dori-darmon yetishtirish ishlarida ham tegishli ijobiy ishlar qilinmoqda. Shunga ko'ra viloyatimizda bugungi kunda mavjud bo'lgan dorivor o'simliklarni o'rganish va ularni maxsus o'rmon xo'jaliklarida yoki o'simliklarni yetishtirish bilan shug'ullanuvchi maxsus tashkilot va bog'larda bu o'simliklarni o'stirish va ko'paytirishni yo'lga qo'yish dolzarb muammo ekanligi barchamizga ma'lum. Biz bitiruv

malakaviy ishimizni bajarish jarayonida dorivor o'simlik biologik xususiyatlari geografik, fitotsenotik tarqalishi hamda undan oqilona foydalanishning ayrim sohalarini o'rganishni o'z oldimizga vazifa qilib quygan edik. Olib borilgan tadqiqot ishlarimiz natijasida biz oldimizga quyilgan vazifani bajardik degan fikrdamiz. Malakaviy ishni bajarish jarayonida menga yaqindan turib yordam bergan domlam prof. S.M.Mustafayev, dots. B.Boysunov va botanika kafedrası o'qituvchilariga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

Mavzuning dolzarbligi. Qashqadaryo viloyati O'zbekiston Respublikasida dorivor o'simliklarga boy xududlar va xudud florasi tarkibida dorivor o'simliklar ko'p va ular ilmiy meditsina va xalq tabobatida ishlatilishi va Qashqadaryo viloyatining cho'l, adir, tog' va yaylov zonalarida tarqalgan o'simlik turlarining geografik tarqalishi, bio-ekologiyasi, ilmiy va xalq tabobatida qo'llanilishi haqida ma'lumotlar kiritilgan.

Ishning maqsadi. Qashqadaryo viloyatida tarqalgan dorivor o'simliklarni turli-tumanligi, har bir turning morfo-biologik tuzilishi, tarqalishi, kimyoviy tarkibi hamda ilmiy va xalq tabobatida qo'llanilishini o'rganishdan iborat.

Ishni bajarish uslubi. Shu sohaga taalluqli adabiyotlar va ilmiy hamda xalq tabobat durdonalarida ma'lumotlar yig'ish tabiatda dorivor o'simliklarni, ularning bio-ekologik xususiyatlari bilan tanishish, mahalliy tabiblar bilan suhbatlar uyushtirish jarayonida, ularning tajribalaridan foydalangan holda tegishli xulosaga kelishdan iborat.

Ishning yangiligi. Qashqadaryo viloyatida tarqalgan dorivor o'simliklarni aniqlash va ularni ilmiy, xalq tabobatida qo'llaniladigan yangi ilmiy meditsina uchun noma'lum turlar va ulardan foydalanish tartib qoidalarini o'rganishdan iborat.

Ishning amaliy ahamiyati. Hozirgi kunga qadar qo'llanilmagan yoki kam qo'llanilgan o'simlik turlari va ulardan tayyorlangan dori-darmonlar haqida o'z takliflarimizni havola etishdan iborat.

I BOB. QASHQADARYO VILOYATINING FIZIK VA GEOGRAFIK TAVSIFI

Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning janubida joylashgan bo'lib, uning maydoni 28.4 ming kv. km ga teng.

Viloyatning relyefi g'arbdan sharqqa tomon asta sekin balandlashib boradi. Qarshi tekisligi Dengiz sathidan 280-350 metrga teng bo'lsa, sharqda Hisor tog'larida uning balandligi 4112 metrdan ortiq.

Qashqadaryo viloyati cho'l, adir, tog' va yaylov singari zonalaridan iborat (Q.Z.Zokirov 1960-1966 y).

Cho'l zonasi 280-450 metr oralig'idagi gipsometrlilik pog'onadagi Qarshi qiya tekisligi va Kitob-Shahrisabz botig'ini o'z ichiga oladi va maydon jihatdan viloyatning asosiy qismini ishg'ol etadi. Qarshi qiya tekisligi qizilqumning janubi-sharqiy chekkasi hisoblanagan. Sandikli qumli cho'l bilan Zarafshon va Hisor tog'larining etaklariga tutashib ketgan qariyib 1,3 mln maydonni o'z ichiga oladi.

G'arbda Kitob-Shahrisabz botig'i va sharqda Hisor tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlari – Yakkabog' tog'lari adir mintaqasi yastanib yotibdi.

Adir zonasi. Lyoss jinslari bilan qoplangan va usti tarashlangan, turli tomon yo'nalishli yassi tepa marjonlaridir. G'arbda lyoss qoplami 10-15 metr bo'lsa, sharqda tog' etaklarida 2-5 metrga tengdir. G'arbiy yonbag'ri tik bo'lgan Hazrati Sulton tog'ining balandligi 4000 metrdan oshiq. Balandligi bo'yicha O'zbekistonda 6-o'rinda turuvchi 4145 metrli G'ova cho'qqisi viloyat hududining eng baland nuqtasidir.

Qashqadaryo viloyatining shimolida Zarafshon tizmasining Chaqilqalan, Qoratepa va Ziyovutdin-Zirabuloq tog'lari cho'zilgan. Bu tog'lar dengiz sathidan o'rtacha 1800-2300 metr balandlikka ega, yuqori nuqtasi 2336 metr (Zebon cho'qqisi). Qoratepa tog'lari sharqda Taxtaqoracha dovonidan (1630 m) g'arbda Jom botig'igacha (600 m) davom etadi. Uning baland nuqtasi Kamqo'ton tog'idir (2336 m).

Qoratepa tog'larining janubiy etaklarida unchalik tipik bo'lmagan adirlar marjoni mavjud (Jom adirlari). Undan g'arbda nisbiy balandligi 500-600 m bo'lgan zirabuloq tog'larining Zindon tog' cho'qqisi 1116 m balandlikka ega.

Tuproqlari. Qashqadaryo viloyati yuzasining murakkab geomorfologik tuzilishli, tog' jinslari va iqlim sharoitlarining xilma-xilligi hamda inson xo'jalik faoliyatining tarixiy va hududiy xususiyatlari tufayli Qashqadaryo viloyatida O'zbekiston hududi uchun xos bo'lgan deyarli barcha tuproq turlari tarqalgan.

Viloyat hududida tuproq tiplari relyefi va gidrotermik (issiqlik va atmosfera yog'inlarining taqsimlanishi) sharoitlariga bog'liq holda g'arbdan sharqqa tomon o'zgaradi.

Cho'l zonasining tuproqlari xilma-xil ular dengiz sathidan balandligi 250-300 m gacha eng katta maydon (350 mingga) taqirli tuproqlar tarqalgan bo'lib, ular ba'zan, taqirlar cho'l qumli tuproqlar va qumloqlar bilan aralash holda uchraydi.

Taqirli tuproqlar, asosan allyuvial qumoq – gilli va qumoq yotqiziqlarda ayrim joylarda esa taqirli – (tuproq) qumoq yotqiziqlari vujudga kelgan.

Qarshi cho'li sharoitida tarqalgan tuproqlar chuchuk yoki kam minerallashtirilgan sizot suvlari sathining ancha past joylashganligi sababli nisbatan kam sho'rlangan. Bu tuproqlarda chirindining miqdori 0,65-0,8 % ni, ba'zi hollardagina 1 %ni azotning miqdori 0,05 % va fosforning miqdori 0,17-0,18 % ni tashkil etadi va quyi qatlamlarga tomon ularning miqdori kamaya boradi. Shu boisdan ular birinchi navbatda o'zlashtira boshlandi. Viloyatning g'arbiy qismida cho'l-qumli qismida tuproqlar keng tarqalgan. Cho'l-qumli tuproqlar sur-qo'ng'ir va taqirli tuproqlarga o'xshab, bu tuproqlarda efemerlar va efemeroid o'simliklar o'sadi, lekin bu tuproqlarda chirindining miqdori juda kam (0,3-0,5) % ozuqa beruvchi kimyoviy unsurlarga kambag'al.

Qashqadaryo viloyatining cho'l zonasida keng tarqalgan (175 mingga) tuproq tiplaridan yana biri sur-qo'ng'ir tuproqlar bo'lib, ularning yuza qatlami qatqaloqli (1-6 sm), undan qo'yiroqda to'q rangli mayin tuproq qatlami joylashgan.

Bu tuproqlarda azot va fosforning miqdori ham ko'p emas. 25-30 sm gacha bo'lgan yuza qatlamda chirindining miqdori 0,2-0,3 % ni, azotning miqdori 0,015-0,05% va fosforning miqdori 0,155-0,095 % ni tashkil etadi va qo'yi qatlamlarga tomon kamaya boradi.

Qarshi cho'lida o'tloq tuproqlar ham uchraydi, sizot suvlarining sathi yer yuzasiga yaqin joylashgan. Ularda qalin o'simlik qoplami hosil bo'ladi. O'tloq tuproqlar cho'l zonasining avtomorf tuproqlariga nisbatan chirindining ancha ko'p miqdoriga (0-2,0 %) ega va turli darajada sho'rlangan. Shu sababli o'zlashtirilgan o'tloq tuproqlarda sho'rlanish zovurlar orqali kuchsizlantiriladi.

Qarshi cho'lining janubiy qismida qayrusti trassalarida allyuvial yotqiziqlarida cho'l qumli va sur-qo'ng'ir tuproqlar bilan aralashgan holda taqirli uchraydi.

Taqirlar tarkibida tuproq hosil bo'lish jarayonining holatiga qarab 15-30 sm chuqurlikkacha gil ko'p bo'ladi.

Taqirlar morfologik va litologik tuzilishli, tuzlarning qatlamlar bo'yicha taqsimlanishi, sho'rlanish darajasi va tuzlarning tarkibiga ko'ra xilma-xildir.

Qashqadaryo havzasining g'arbiy qismida berk botiqlarida pastqam joylarda, daryo vodiylarida sho'rxoklar uchraydi. Ularning umumiy maydoni 42 ming kv dan ortiq.

Sho'rxoklar Qarshi cho'lida prolyuvial va allyuvial yotqiziqli soylar tubida, minerallashtirilgan darajasi yuqori bo'lgan sizot suvi yuzasiga yaqin joylashgan, cho'kmalarda uchraydi.

Qashqadaryo viloyatining qariyib 55 % maydoni boʻz tuproqlar hisoblanib, lalmikor yerlarning hammasi, obikor yerlarning deyarli 80 %i boʻz tuproqli yerlardir.

Och tusli boʻz tuproqlar Qashqadaryo havzasining oʻrta qismida dengiz sathidan 250 m dan 400 m gacha balandlikda joylashgan boʻlib, bu tuproqlar lyoss va allyuvial-prolyuvial yotqiziqlaridan vujudga kelgan.

Och tusli boʻz tuproqlar tarqalgan rayonlarda havoning yillik oʻrtacha harorati 160 S atrofida boʻlib, yil davomida 200-300 mm miqdorida yogʻinlar (asosan qishda va bahorning boshida) tushadi. Bunday iqlim sharoitlarida qiyoy va qoʻngʻirbosh koʻp oʻsadigan oʻsimlik qoplami mavjud boʻladi. Och tusli boʻz tuproqlar nisbatan kam chirindili boʻladi.

Boʻz tuproqlar tarqalgan rayonlarda havoning yillik oʻrtacha harorati 12-150 S ni, yillik yogʻinlarning miqdori 300-400 mm ni tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyatining oʻzlashtirilmagan boʻz tuproqli yerlarida chimli qatlamlarida chirindining miqdori 3 % gacha yetadi. Bunday yerlardagi tuproqlar azotga ancha boy boʻlib, uning miqdori chimli qatlamda 0,194 %, bu qatlamdan pastda esa 0,116 % ni tashkil etadi.

Toʻq tusli boʻz tuproqlar togʻ oldi adirlarida togʻlarning yonbagʻirlarida 800-900 m dan 1200-1400 balandliklarda tarqalgan. Bu yerlarda havoning yillik oʻrtacha harorati 10-120 S yillik oʻrtacha yogʻinlarning miqdori 400-500 mm ni tashkil etadi.

Toʻq boʻz tuproqlar tarqalgan joylarda ham oʻsimlik qoplami asosan oʻt va boshqoqli oʻsimliklardan iborat, balandroqda buta va daraxtlar (bodom, olcha, doʻlana va boshqalar) oʻsadi. Bunday tuproqlarning chimli qatlamida chirindining miqdori 2,5-3,5 % boʻlib ayrim joylarda 4,5 % gacha yetadi.

Toʻq boʻz tuproqlarda sharoitlari va relyefi obikor dehqonchilik uchun noqulay boʻlganligi sababli bu yerlarda lalmi ekinlar (bugʻdoy, arpa, noʻxat va b.) yetishtiriladi.

Togʻ oldi zonasidan yuqorida oʻrtacha balandlikdagi va baland togʻlarning yon bagʻirlarida 1200-1400 m dan yuqorida jigar rang togʻ-oʻrmon va och tusli qoʻngʻir tuproqlar joylashgan.

Jigar rang togʻ-oʻrmon tuproqli zonada havoning yillik oʻrtacha harorati 80 S dan 120 S gacha, yillik yogʻinlarning miqdori 500 mm dan 800 mm gacha boʻladi. Bu muhit oʻt oʻsimliklari hamda butalar va past boʻyli daraxtlarning (asosan archa) oʻsishga imkon beradi. Bu tuproqlar batamom shoʻrlanmagan, lekin yonbagʻirlar qiyaligining katta boʻlganligi sababli tuproq tarqalgan 70 % ga yaqin maydonlar oʻrtacha va kuchli darajasida eroziyaga uchragan.

Qashqadaryo viloyati xududida och tusli qoʻngʻir tuproqlar (qoya va toshloqzorlar bilan birgalikda) 83 ming ga maydonni ishga olib, bu tuproqlarda chirindining miqdori togʻ yonbagʻirlari ekspozitsiyasiga bogʻliq. Quyosh nurlari koʻp tushadigan yonbagʻirlarda uning miqdori 3-5 % ni, kam tushadigan yonbagʻirlarida esa 5-7 % ni tashkil etadi. Qoʻyi qatlamlarga

tomon chirindining miqdori kamaya boradi va 90-100 sm chuqurlikda uning miqdori 1 % dan oshmaydi.

Dehqonchilik va bog'dorchilik qilinadigan yerlarda tuproq hosil bo'lish sharoitlari ancha o'zgaradi. Sug'oriladigan yerlarning tuproqlarida qalinligi 1 m ga va undan ortiq bo'lgan o'ziga xos agroirrigatsiya qatlami hosil bo'ladi. Shu sababli O'zbekistonlik tuproqshunoslar cho'l zonasining sug'oriladigan yerlarida o'tloq-voha, taqirli-voha va botqoq-voha tuproq tiplarini, tog' oldi zonasining sug'oriladigan yerlarida esa o'tloq-voha, botqoq-voha va bo'z tuproqli-voha tuproq tiplarini ajratadilar.

Ichki suvlari. Qashqadaryo viloyati xududida O'zbekistonning nisbatan yirik daryo tizimlaridan biri bo'lgan Qashqadaryo havzasi joylashgan. Suv yig'ilish maydoni 8780 kv km bo'lgan Qashqadaryo havzasi shimoli-sharqda Zarafshon, Sharqda Hisor tizmalarining g'arbiy tarmoqlari bilan o'ralgan bo'lib, g'arbda Qarshi cho'li bilan tutashib kelgan.

Qashqadaryo havzasining deyarli barcha daryolari tog'lardan boshlanadi. Havzaning eng uzun daryosi Qashqadaryo (332 km) bo'lib, u Zarafshon tizmasi g'arbiy tarmog'ining janubiy yon bag'ridan 3000 m balandlikda boshlanadi.

Tog'lardan chiqqandan so'ng Qashqadaryoga chap tomondan Hisor tizmasining shimoliy-g'arbiy va g'arbiy tarmoqlaridan boshlanadigan Jinnidaryo (uzunligi 61 km, suv yig'iladigan havzaning maydoni 367 km²). Oq suv (uzunligi 115 km suv yig'iladigan havzaning maydoni 1050 km²). Tanxozdaryo (uzunligi 104 km bo'lib, suv yig'iladigan havzaning maydoni 459 km²). Yakkabog', G'uzordaryo kabi irmoqlar qo'shiladi.

Suvning ko'pligi jihatidan havzaning ikkinchi daryosi bo'lgan Yakkabog'daryo (uzunligi 108 km, suv yig'iladigan havzaning maydoni 1060 km²). Hisor tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlarida 4000 m balandlikda Qizilsuv daryosi nomi bilan boshlanadigan va tog'lardan chiqishi bilan Qashqadaryoga yetmasdan ikkita tarmoqqa bo'linib ketadi.

Qashqadaryoning oxirgi chap irmog'i G'uzordaryodir (uzunligi 86 km, suv yig'iladigan havzaning maydoni 3220 km²). G'uzordaryo katta Uradaryo va kichik Uradaryoning qo'shilidan hosil bo'ladi.

Qashqadaryo va uning asosiy irmoqlari oqimining ko'rsatkichlari 1-jadvalda berilgan. Yillik oqimning katta qismi (60 % dan) ko'prog'i mart-iyun oylariga qishloq xo'jalik ekinlari vegetatsiya davrini sug'orish qilinadigan iyul-avgust oylariga esa 11-28 % to'g'ri keladi.

Qashqadaryo havzasining tog'li qismida hammasi bo'lib bir yilda 1,6 mlrd m³ ga yaqin miqdorda oqim hosil bo'ladi. Daryolarning suvlaridan yozda ekin ekiladigan maydonlarni sug'orish maqsadida bahorgi toshqin suvlarini to'playdigan 13 ta suv ombori qurilgan. Bundan tashqari Amudaryo suvlaridan, Qarshi cho'lining o'zlashtirilgan yerlarini sug'orish maqsadida suv sig'imi 1,5 mlrd m³ bo'lgan Talimarjon suv ombori qurilgan va foydalanilmoqda.

Iqlimi. Viloyatning iqlimi keskin kontinental tekislik qismida yoz fasli 155-160 kunga, tog' zonasida esa 80-90 kunga teng.

Quyoshning balandligi dekabrda 27-290 S, iyunda 73-750 S ni tashkil etib, radiatsiyaning yillik balansi $67,1 \text{ kkal/sm}^2$ atrofida. Atmosfera sirkulyatsiyasi yil davomida almashinib turganligi sababli ob-havosi ham yil davomida o'zgarib turadi.

Bahor oylari uchun beqaror ob-havo xos bo'lib, siklon jarayonlari faollashganligi sababli yog'inlarning katta qismining tushishi viloyatning adir va tog' zonasiga to'g'ri keladi.

Yozda havo ochiq, yog'in yog'maydi. Faqat tog'li zonalarda yog'inlar yog'ishi kuzatiladi. Uzoq (6-8 oy) davom etadigan yoz oylarida havoning kuchli isishi natijasida Turon quruq tropik havosi tarkib topadi va O'rta Osiyodagi singari Qashqadaryoda ham past bosimli havo qatlamini vujudga keladi.

Kuzning birinchi yarmida ham issiq ob-havo kuzatilib, uning yillik o'rtacha harorati viloyatning dengiz sathidan 500-600 m gacha balandlikda joylashgan tekislik va tog' oldi xududlarida shimolda 150 S (Kitob), janubda 16,10 S (G'uzor) bo'lib, sharqqa tomon relyefining balandlashib borishiga bog'liq holda pasayadi.

Qishdagi eng sovuq yanvar oyida o'rtacha harorat shisolda +0,20 S bo'lsa, janubda +1,90 S, yozda eng issiq oy iyulda shimolda +280 S, janubda +29,50 S ni tashkil etadi. Yillik o'rtacha harorat shimolda +14,70 S ga janubda +16,10 S ga tengdir.


Haroratning o'rtacha yillik amplitudasi (eng sovuq oy bilan eng issiq oy haroratlar farqi) tekisliklarda 25-300 S, tog'larda 20-250 S bo'ladi.

Bu ko'rsatkich bo'yicha Qashqadaryo viloyati tipik kontinental iqlimga ega.

Yog'ingarchilik yil davomida notekis taqsimlanadi. Tog'li va tog' oldi mintaqalarida yog'inning asosiy qismi bahor (mart-may) oylariga tushadi. Yillik yog'in miqdorining 45-50 % bahor, 37-40 % qish (dekabr-fevral), 10-15 % kuz (sentabr-noyabr) va atigi 2-3 % yoz (iyun-avgust) oylariga to'g'ri keladi.

Bahor va yoz oylarida esadigan issiq va quruq shamollar – garmsellarda chang ko'tariladi, havo xiralashadi. Bunday tabiiy hodisalar yiliga o'rta hisobda tekisliklarda 4-10 marta sodir bo'ladi.

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ



II BOB. QASHQADARYO VILOYATIDA TARQALGAN DORIVOR O‘SIMLIKLARNI O‘RGANISH TARIXI

Shifobaxsh o‘simliklarning foydali xususiyatlarini qadim zamonlarda ham xalqimiz bilishgan va ulardan turli xastaliklarni davolash uchun foydalangan.

Shifobaxsh o‘simliklarni ko‘plari ilmiy o‘rganilib, tibbiyotda keng qo‘llanilmokda. Biroq hali tabobat olamiga mansub bo‘lgan ming-minglab o‘simliklarning sir-asnosidan bexabarmiz. Vaqti kelib insoniyat tabiat ehsoni bo‘lmish o‘simliklar bilan bog‘liq muammolarni yechadi.

Shifobaxsh o‘simliklarni o‘rganish haqidagi ilm eng ko‘hna, hozirda tez sur‘atlar bilan rivojlanayotgan fanlardan hisoblanadi.

Biz, inson o‘z hayotining ilk damlarida qanday shifobaxsh o‘simliklardan foydalanganligini bilmaymiz, lekin eng qadimiy qo‘lyozmalarda shifobaxsh o‘simliklar to‘g‘risida tushuncha va axborotlar qayd qilingan. Bundan 4 ming yil muqaddam Hindistonda shifobaxsh o‘simliklarni yig‘ish haqidagi ma‘lumotlar yozib qoldirilgan. Qadimiy Misrda ham shifobaxsh o‘simliklar haqida ma‘lumot bo‘lgan.

Shifobaxsh o‘simliklardan tibbiy maqsadlar uchun foydalanish borasida buyuk tabib, Abu Ali Ibn Sino “Al-qonun” asarida 900 ga yaqin o‘simliklarning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish yo‘llari to‘g‘risida ma‘lumot keltiradi.

Hozirgi ilmiy tibbiyotda qo‘llanilayotgan dori-darmonlarning qariyb 40 foizidan ziyodini o‘simlik mahsulotlari tashkil qiladi. Ko‘pchilik shifokorning bergan ma‘lumotlariga qaraganda tabiat ne‘matlaridan olinadigan dori-darmonlar kimyoviy-sun‘iy yo‘l bilan olinadigan preparatlarga nisbatan afzalligi bilan ajralib turadi.

Respublikamizda dorixonalar bosh boshkarmasi tomonidan “Shifobaxsh giyohxonalar” ochib berilishining o‘zi dorivor o‘simliklarga bo‘lgan e‘tibor va katga talablardan dalolat beradi.

Mavjud giyohxonalarda shifobaxsh o‘simliklarning poyasi, bargi, ildizi, guli, g‘unchasi, mevasi, donasi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, anbar moylarini ko‘rishimiz mumkin.

Halq tabobati tarixi juda uzoq-uzoq zamonlarga borib taqaladi. Inson tabiat ne‘matlaridan baxramand bo‘la boshlagandan boshlab tabiiy dorivor giyohlarni aniqlashda hayvonlar ustidan kuzatishlar ham yordam bergan.

Ayrim hayvonlar xastalanganda ma‘lum bir o‘simlikni iste‘mol qilib tuzalib ketishgan. Masalan, echkilar kofeni ixtiro qilishga sabab bo‘lgan bo‘lsa, yaralangan kiyiklar mumiyo yoki kiyik o‘tini aniqlashga yordam bergan.

Shifobaxsh o‘simliklardan foydalanish o‘zining qadimiy zaminiga ega. Bu zamin qadimiy Hind tabobatida boshlangan desak xato kilmaymiz.

Hind tabobati dori-darmonlar haqidagi ma'lumotlarni ulug' hakam Sushrut (eramizgacha bo'lgan IV asrda yashagan) "Lyur-veda" nomli mashxur kitobida 700 ta shifobaxsh giyoxlarga ta'rif-tavsif berilgai. U kitobda nomlari keltirilgan dorivor giyohlardan Hind tabobatchi- ligida hozir ham foydalanib kelmoqda.

Tibet tabobati dorivor o'simliklardan har xil xastaliklarni davolash "Chjud-shi" (to'rt asos) kitobini yaratdi. Tibet tabobati asta sekin Xitoy, Yaponiya, Mug'ilistonda keyinchalik Rossiya va Britaniyada tarqalgandi.

O'rta Osiyoda dorivor o'simliklardan foydalanish borasida Abu Ali Ibn Sino o'zining mashhur "Tib qonunlari" asarini yaratdi. Bu asarda 300 ga yaqin dorivor o'simliklardan usullari ko'rsatib berilgan.

Mashxur hokim Xorazmlik Abu Abdulloh ibn Muso al Xorazmiy, Abu Bakir Muhammad bin Zaxiriya ar-Roziy, Sharafuddin Abu Abdulla Muhammad ibn Yusuf Ilohiy, Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al Beruniy, Abu Mansur Buxoriylar tabobat ilmining rivojlanishga o'lgan hissa qo'shganlar.

Arxeologiya bo'yicha qazish ishlari shuni ko'rsatadiki Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlarda qadimgi dorixonalar bo'lgan. Bu dorixonalarda asosan o'simlik va hayvonot dunyosidan olingan xom ashyolardan har xil dori-darmonlar tayyorlangan. Hind, Xitoy, Vyetnam, Tibet tabobatida qo'llaniladigan o'simliklarning ko'p qismi O'zbekistonning janubiy viloyatlarida o'sadi. Bunga qirqkuloq, rovoch, yalpiz, kiyiko't, mingbosh, olpor, zirk, zira turlari andiz va boshqa o'nlab o'simliklarni kiritish mumkin. Bundan tashqari efir moylariga va alkaloidlarga boy o'nlab hili o'rganilmagan o'simliklarni uchratish mumkin. Ko'pchilik bu o'simliklarning urug'i va ildiz tugunaklarini kavlab oldirib alohida plantatsiyalar tashkil qilib, iqlimga moslashtirib ko'paytirish mumkin. Chunki iqlim Respublikamiz janubiy viloyatlarining iqlim sharoitlari bunga to'la to'kis imkoniyat yaratib beradi.

"O'zbekiston florasini" nomli 6 jildli monografiyada qayd qilinishicha O'zbekistonda yovvoyi, madaniy o'simliklarning 137 oila 1023 turkumga mansub 4230 o'simlik turi bo'lib, ularning 577 turi dorivor shifobaxsh o'simliklar hisoblanadi. (1941-1951 yil, I.I.Granitov, S N.Kudryashev 1961 yil, S.M. Mustafayev 1966 yil).

Qashqadaryo viloyatining cho'l, adir, tog' va yaylov mintaqalarida 1184 o'simlik tarqalganligi aniqlangan. Shundan Kitob tumanida 60 ta oila, 700 ga yaqin turkum va 1000 ga yaqin turga mansub o'simliklar uchraydi.

Bu o't o'lanlarning ko'pchiligi foydali, turli xil vitaminlar, dori-darmonlar, glikozidlar, alkaloidlar va har xil yukumli xastalik tarqatuvchi mikroba va viruslarni o'ldiridilgan fitonsidlar, sanoat va tibbiyotda keng qo'llaniladigan saponinlar, parfyumeriya (pardoqlash) sanoatida

qo'llaniladigan efir moylari va oshlovchi moddalar olishda foydalaniladi. Lekin hozirga qadar Qashqadaryo viloyatida uchraydigan dorivor o'simliklarning biologiyasi, ekologiyasi va tabiiy zapasi to'lig'icha o'rganilgan deyish qiyin. Shu sababdan viloyatda uchraydigan dorivor o'simliklarni biologiyasi va ekologiyasini har tomonlama o'rganish muhim ham amaliy, ham nazariy ahamiyatga ega. Qashqadaryo viloyatida shifobaxsh o'simliklarning ko'pgina turlari mavjud. Ulardan oqilona foydalanish, birinchi navbatda mahalliy aholi sog'lig'ini asrashda hamda xalq xo'jaligini rivojlantirishda muhim rol uynaydi. Ammo dorivor o'simlik zaxarilarini ishlab chiqarishda rejasiz ishlatish, ularni zahiralari va areallarini qisqarishga sabab bo'ladi. Shu sababdan tabiiy dorivor o'simlik zahiralardan oqilona foydalanish viloyatimizda mavjud o'simliklar dunyosini tabiiy holda saklanishi uchun zarur omillardan hisoblanadi. Shunday ekan ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bizning muqaddas vazifamizdir.

Respublikamizdagi dorixonalar orqali 54 xildagi dorivor o'simliklarni yer ustki va yer ostki qismi qazib borilmoqda.

O'zbekiston tabiati o'zining betakror go'zal-liklari, serquyoshligi, tuproq va suvi bilan alohida ajralib turadi. Shuning uchun ham uning o'simliklar dunyosi g'oyat boy. (Jumhuriyatimizda 4230 dan ortiq turdagi yuksak o'simliklar o'sadi. Shundan 577 tasining dorivorlik xususiyati aniqlangan).

Ko'p dorivor o'simliklar o'zining shifobaxshligi bilan xalqimiz o'rtasida keng tanilgan bo'lib, ular xalq va ilmiy tabobatda muvaffaqiyatli ko'llanib kelmoqda.

Sanoat ko'lamida kimyoviy sintez orqali olinayotgan turli xildagi dori-darmonlarning tannarxi dorivor o'simliklardan olinayotgan dori-darmonlarga nisbatan ancha qimmatga tushmoqda.

Bu dori-darmonlar inson organizmini davolashda yaxshi samara berib, hech qanday asorat qoldirmaydi. Shuning uchun kimyoviy sintezdan ko'ra tabiiy xom ashyodan preparatlar tayyorlashni ilmiy tibbiyotda tasdiqlanmoqda.

III BOB. QASHQADARYO HAVZASIDA TARQALGAN DORIVOR O‘SIMLIKLARNING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Dorivor o‘simliklar xom-ashyo bazasini kengaytirish hech kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Hozir shifobaxsh o‘simliklardan tayyorlangan dori-darmonlardan keng miqyosda foydalanib kelinmokda. Ruhiy xastaliklarni davolashda dorivor o‘simliklarning 18 xilidan, rakni davolashda 7 xilidan, qandli diabetda 24 xilidan, atereskleroz, yurak va qon tomirlari sklerozidan 25 xilidan, oshqozon xastaliklarida 10 xilidan, qon bosimi xastaliklarida 22 xilidan keng foydalanilmoqda. Bundan tashqari kashandalik va alkogolizmning oldini olish, qondagi xolestirin moddasini muvofiqlashtirib turishda ham shifobaxsh giyohlardan tayyorlangan dori-darmonlar yordam bermoqda.

Respublikamizda o‘rmon xo‘jaligi xodimlari birgina o‘n ikkinchi besh yillikda tibbiyot sanoati uchun 926 tonna, O‘zbekiston “Farmatsiya” bosh birlashmasi uchun esa 200 tonna dorivor o‘simlik xom ashyosi tayyorlab berdi.

Bu raqamlar yildan-yilga ko‘paymoqda. Bunday qaraganda hamma ish durust ketayotganday ko‘rinadi. Lekin jumhuriyatimiz o‘rmonu-dalalarida turli tuman qimmatbaho o‘t-o‘lanlar o‘sayotgani va ulardan qoniqarsiz foydalanila-yotganimiz achinarlidir. Bunga sabab jumxuriyatimizda o‘t-o‘lanlarni o‘rganish va ulardan dori-darmonlar tayyorlash bilan hamon jiddiy shug‘ullanadigan maxsus ilmiy tekshirish ilmgohining yo‘qligidir.

O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida 300 dan ortiqroq dorivor o‘simliklar o‘sishi aniqlangan.

O‘rta Osiyo xalqlari o‘zlarning juda boy tabobatiga ega. Ammo xalq tabobatini o‘rganish talab darajasida emas. Xalq tabobatida qo‘llaniladigan dori-darmonlarni o‘rganib, ularni keng yo‘lga qo‘yishimiz kerak.

Qashqadaryo viloyatida 10 dan ortiq dorixonalarda shifobaxsh o‘simliklardan tayyorlangan dori-darmonlar bo‘limi ishlab turibdi. Viloyat tumanlarida davolashga qaratilgan qator dorivor giyohlardan kasallarni davolash uchun tayyorlangan damlama bilan davolovchi fitobar ochilgan.

Xalqimizning shifobaxsh o‘simliklar haqidagi boy tajribasi yo‘q bo‘lib ketmasligi hamda ulardan oqilona foydalanish uchun Qashqadaryo viloyatida yovvoyi holda o‘sadigan, xalq va ilmiy tibbiyotda ishlatiladigan dorivor o‘simliklar haqida qisqacha ma’lumot berishni lozim ko‘rdik.

Bizning olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarimiz natijasida aniqlanishicha, Qashqadaryo suv havzasida gulli o‘simliklarning Achchiq bodom *Amygdalus bucharica* Korsh, bodomcha *A.Spinosissima* Bunge, Buyimodaron – *Achillea millefolium* z, Kichik bo‘yimadaron -

Achillea *steini* G, Gulxayri - *Althaea* *rhuticapa* Trantv Gazanda, chayono't - *Urtica* *dioica* L, Dalachoy - *H. perforatum* L, Dastarbosh – *Achillea* *Filipendulina* Lam, Jambil – *Bunium* *persicum* Fedt sch, Zubtutum - *Plantago* *lanceolata* L, Itburun - *Rosa* *canina* l, Kiyik o't - *Ziziphora* *persica* Bunge, Maymunjon - *Rubus* *calsius* l, Na'matak - *Rosa* *beggeriana* Schrenk, Otquloq - *Rumex* *confertus* Willdo, Pontik do'lana - *Crataegus* *pontica* C.Koch, Do'lana zardak - C. Koralkovii Sp, Toron - *Polygonum* *diaristatum* Aitch.et Hemsl, Tog' rayhon - *Origanum* *tuttanthum* yontsh, Shotora-Fumaria vaillantii Loisel, Yalpiz - *Mentha* *asianica* Boriss, Qora zira - *Bunium* *capusii* Korol, Qizilpoycha - *Hupericum* *scabrum* L, Arpa bodiyon – *Pimpinella* *anisum* Caern, Gulizardak - *Adonis* *turkestanica* Adol, Yerchoy – *Orthurus* *Kakanicus* Rgl et. Schmalh, Yovvoyi piyoz – *Allium* et Schmalh, Alqor - *Mediasia* *macrohull* Regel, Rovoch - *Rheum* *maximoviezii* Losensk, Qora andiz - *Jnula* *helenium* L, Sariq andiz - *J. macrophulla* Kar.et.Kir, Sumbul - *Ferula* *sumbul* Pol, Marmarak - *Salvia* *drobovii* Botsch, Shirinmiya - *Glycyrrhiza* *glabra* L, Shirach - *Eremurus* *regelii* Vved, Isfarak - *Delphinium* *rotundifolium* Afon, Qora zirk - *Berberis* *integerrima* Bunge, Qizil zirk - *Berberis* *nummularia* Bunge turlari mavjudligi aniqlandi. Biz bitiruv malakaviy ishimizda Qashqadaryo viloyatida tarqalgan ayrim dorivor o'simliklar haqida ma'lumotlar keltiramiz.

Arpabodiyon–Pimpinella anisum caerth. Arpabodiyon o'simligi O'zbekistonning deyarli barcha tumanlarida ziravor va dorivor o'simlik sifatida ishlatiladi. Bu o'simlik ko'p yillik, soyabonguldoshlar oilasiga mansub o'tsimon o'simlik bo'lib, bo'yt 30-70 sm atrofida, poyasi tik o'suvchi, tukli, ko'p qirrali, yuqori qismi shoxlangan. Barglari yashil, ildizga yaqin poyaning pastki qismida joylashgan, uzun, uch bo'lakli, qirrasi tishsimon qirqilgan. Barglari poyada ketma-ket joylashgan. Gullari mayda, ko'rimsiz, murakkab soyabonga to'plangan bo'lib, oq yoki sariq rangli bo'ladi.

May-iyul oylarida gullaydi, mevasi qo'shaloq, pistadan iborat bo'lib, avgustda yetiladi.

Mevasi tarkibida 2-3% miqdorda oqsil va 16-22% moy bo'lganligi tufayli u qoramollar uchun to'yimli oziq hisoblanadi.

Ishlatiladigan organlari: mevasi urug'lari bo'lib, avgust va sentabrda yig'iladi. Tarkibida efir moyi bor. Efir moyining o'ziga hos hushbo'y hidi va shirin mazasi bor.

Tabobatda ishlatilishi: Xalq tabobatida arpabodiyon nafas organlarining yallig'lanish kasalliklarida balg'am ko'chiradigan vosita tariqasida astma xurujini yengillashtiradigan dori sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari uni emizikli ayollar sutini ko'paytirish, chanqoqni qoldirish uchun, yel haydaydigan, o't haydaydigan, siydik haydaydigan dori tariqasida tavsiya etiladi. Shuningdek, ich ketar paytlarda ichaklardan qon ketayotgan mahallarda og'riqli hayz vaqtida ham buyuriladi.

Ilmiy meditsinada arpabodiyon mevasidan tayyorlangan dori-darmonlar qorin og'rig'ini (spazm) qoldirish, ichak faoliyatini yaxshilashda tavsiya qilinadi. Ular anatsid gastridni davolashda qo'llaniladi. Arpabodiyon moyi va mevasining damlamasidan yuqori nafas yo'llarining shamollash va qizamiq kasalligini davolashda foydalaniladi.

Arpabodiyon mevalaridan uy sharoitida damlama tayyorlash uchun bir choy qoshiq o'simlik mevasi bir stakan qaynoq suvga solinadi va 1 soat davomida damlab quyiladi, sovigandan so'ng suzib olinadi. Damlama uchga bo'linib, kun davomida ichiladi.

Bu shifobaxsh o'simlikdan konditer va parf. meriya sanoatida, holva tayyorlashda nonvoychilikda ham foydalanadi.

Arpabodiyon urug'idan olingan moy sovun pishirishda keng miqiyosida qo'llaniladi.

Oqqaldirmoq (ko'ka)–Tussilago farfara L.Sp.pe. Hali barg chiqarmasdan turib, erta bahorda gullaydigan ko'p yillik o'tsimon o'simlik. Ildiz poyasi uzun, sershoh, ingichka ildizlar chiqaradi. Poyalari cho'zinchoq – nashtarsimon shaklda, pushti qizil rangda bo'ladigan barglar bilan qoplangan. To'pgullari eni 2 sm keladigan savatcha ko'rinishda bo'lib, poyasining uchidan chiqadi, gullab bo'lganidan keyin so'lib qolib, osilib turadi. Gullari tillarang – sariq rangda. Mevalari to'rt qirralari cho'zinchoq urug'li mevalar, uzunligi 3-4 sm keladi. Aprel-may oylarida gullaydi, mevalari may-iyun oylarida yetiladi.

Sernam o'tloqlar, ariq soylar bo'ylari, daryo vodiylaridagi shag'al-toshli yerlarda o'sadi.

Qashqadaryo, Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida o'sadi.

Umumiy tarqalishi: O'rta Osiyo, Kavkaz, Sibir, Kichik Osiyo, Eron, Kashmir, Shimoliy Amerika, Qashqadaryo viloyatining adir va tog' zonalarida tarqalgan.

Ximiyaviy tarkibi: Bu o'simlikning barglarida achchiq glyukozidlar, flavonoidlar, sistosterik, saponinlar, alkaloidlar, karatinoidlar, vitamin S, organik kislotalar, polisaxaridlar, shilimshiq moddalar bilan oshlovchi moddalar va boshqalar bor. Gullarida farodnol, ornidiol, fitosterinlar va oshlovchi soddalar topilgan.

Ishlatiladigan organlari: bargi, guli.

Ta'siri va ishlatilishi. Xalq tabiatida bu o'simlik qadimdan balg'am ko'chiruvchi vosita tariqasida ma'lum bo'lgan. Qaynatma va damlamalari, yo'talish, bronxial astma vaqtida, shuningdek, turli kasalliklarda siydik, o't haydaydigan, terlatadigan vosita sifatida qo'llaniladi, dezinfiksiyalaydigan va yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadigan vosita tariqasida ishlatiladi, yangi barglari va ildizlarining suvi sil, bezgak kasalliklarida buyuriladi. Teng miqdordagi Oqqaldirmoq va qichitqi o't barglaridan tayyorlangan qaynatmani soch to'kilganda va boshni qazg'oq bosganida bosh yuvish uchun tavsiya etiladi.

Ilmiy tabobatda bu o'simlik bargida shilimshiq moddalar bo'lganligi tufayli uning shilliq pardalariga o'rab oluvchi ta'siri aniqlangan. Tarkibida mavjud saponin va organik kislotalar balg'amni yumshatish, suyultirish va chiqib ketishini osonlashtiradi.

Oddiy ermon - Artemisia vulgaris L.Sp.pe. Bo'yi 180 sm gacha boradigan kulrang – kumushsimon tusli, ko'p yillik o'tsimon o'simlik. Ildiz poyasi ko'p shoxli bo'lib, qo'ng'ir rangli ildizlar chiqaradi.

Poyalari qirrali, to'g'ri o'sadi, ba'zan qizg'ish tusda ham bo'ladi. Barglari navbatma-navbat joylashgan poyasining uchiga tomon kichrayib boradi, ustki tomoni to'q yashil rangda, yalang'och, pastki tomoni oqish tuklar bilan qoplangan. Pastki va o'rtadagi bargari ellipssimon yoki tuxumsimon shaklda bo'lib, uzunligi 10 sm gacha boradi. Gullari mayda ro'vaksimon to'pgul hosil qiladi. Mevasi dugsimon shaklda bo'ladigan, yashil-qo'ng'ir rangli meva, uzunasiga ketgan egatgalari bor, bo'yi 1.7 mm keladi.

Iyul oyida gullab, sentabr oyida meva tugadi.

Tekisliklardan tog'larning o'rta qismigacha bo'lgan joylarda o'sadi. O'zbekistonning hamma viloyatlarida uchraydi.

Umumiy tarqalishi: O'rta Osiyo, Sibir, Kavkaz, Mangoliya, Afg'oniston, Xitoy, Yaponiya, Hindiston, Shimoliy Amerika.

Ximiyaviy tarkibi: Bu o't tarkibida 0.6% ga qadar efir moyi va alkaloidlar bor. Efir moyining tarkibiga sineal va borneal kiradi. Barglarida bundan tashqari, talaygina karotin va askorbinat kislata bo'ladi. Ildizlarida ham efir moyi bor.

Ishlatiladigan organlari: o'ti va ildizi. Bu o't xalq tabobatida va zamonaviy tabobatda ancha ko'p ishlatiladigan shifobaxsh o'simlikdir. Xalq tabobatida taxajni quyonchiq kasalligida, talvasalarga qarshi, homilador taksikozlari, nevralfiyalarda, shuningdek zahar kuchini kesadigan va umuman quvvatga kirgizadigan vosita tariqasida ishlatiladi. (har safar 3-5 g miqdordagi o'tdan qaynatma tayyorlab ichish buyuriladi). Ibn Sino bu o'tdan buyrak tosh kasalligi, bachadon yaralariga davo qilish, tug'ruq faoliyatini jonlashtirish uchun foydalangan, uni bosh og'rig'i va tumovga qarshi ishlatgan.

Bu o't ildizlari va poya-barglaridan spirtida tayyorlangan ekstrakt me'da, ichak-bachadon raki kasalliklarida qo'llanilgan.

Zamonaviy tabobatda bu o't qaynatmasini tinchlantiruvchi va talvasalarga qarshi vosita tariqasida quyonchiq, nevrastil, meningit va boshqa asab kasalliklarida ishlatiladi. Bundan tashqari taxaj qaynatmasini har xil organlar ayollarda bo'ladigan turli kasalliklar (xususan, hayz buzilishi) da ishlatish, qon to'xtatuvchi, issiqni tushuruvchi, yara jarohatlarini bitiruvchi, shuningdek tug'ruqni tezlashtiruvchi va og'riqsizlantiruvchi vosita tariqasida qo'llanish tavsiya etiladi.

Ermon, shuvoq - Artemisia absinthium L. Bo'yi 150 sm gacha boradigan kulrang-kumushsimon tusda bo'ladigan ko'p yillik o'tsimon o'simlik, o'ziga hos kuchli hidi bor. Ildiz poyasi qayta shoxlanadigan o'q ildiz chiqaradi. Poyalari to'g'ri o'sib, ustki qismidan shoxlanadi. Ildiz yoki barglari bandli, uchburchak-dumaloq shaklda patsimon qirqilgan. To'pgullari solinib turadigan, dumaloq shaklli savatchalar, gullari mayda, sariq, mevalari uchi o'tkirlashib kelgan qo'ng'ir rangli cho'zinchoq shaklli.

May oyidan boshlab gullaydi, mevalari iyul-sentabr oylarida yetiladi.

To'qaylarda, ariq bo'ylarida, yo'l chetlarida, tog'larning o'rta qismigacha bo'lgan joylarda uchraydi.

Qashqadaryo viloyati adir va tog' zonasidan tashqari, Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon, Surxondaryo viloyatlarida uchraydi.

Umumiy tarqalishi: O'rta Osiyo, Kavkaz, Sibir, G'arbiy Yevropa, Eron, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston, Shimoliy Amerika.

Ximiyaviy tarkibi: Bu o'simlikning o'ti va barglarida 2% ga qadar efir moyi, flavonoidlar, organik kislatalar, karotin, vitamin, S oshlovchi moddalar bor. Barglarida anabsintin degan moddalar bu o'simlikka hos taxir maza beradi, uning yallig'lanish va mikroblarga qarshi ta'siri ham shu moddalarga bog'liq.

O'zbekistonda o'sadigan ermonning yer ustki qismidan arabsin degan yangi alkaloid modda ajratib olingan.

Ishlatiladigan organlari: o'ti, gullab turgan yer ustki qismi, ildiz yoni barglari.

Ishlatilishi: Xalq tabobatida ermon o'ti qaynatmasi ovqat hazmi buzilganda, jigar, me'da, taloq, o't pufagi kasalliklari, bavo-sil, bezgakda davo uchun, shuningdek ishtahani ochish, uyquni joyiga keltirish uchun ichiladi, uni gijja haydaydigan, yara jarohlarning bitishini tezlashtiradigan vosita tariqasida ham ishlatiladi.

Ibn Sino Ermon qaynatmasini eski ko'z kasalliklariga davo qilish, asliga keltirish uchun ishlatgan. O'tidan siqib olingan suvni esa, sariq kasalligi va ishtahani ochish uchun buyurgan.

Bu o'simlikdan tayyorlangan galen preparatlar yuqori nafas yo'llari qatori, kamqonlik revmatizm, gepatit, bronxial astma singari kasalliklari, uyqusizlik shuningdek, kam quvvatlik holatlarda damlamasi ichiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak darmon dori deb yuritiladi.



1-rasm. Ermon, shuvoq - *Artemisia absinthium* L.

Qoqi o't - Taraxacum pseudoalpinum Schischk. Barcha qismlarida sutsimon shira bo'lgan ko'p yillik o'simlik, ildizi yo'g'on, etdor bo'lib, kam shoxlanadi, uzunligi 60 sm ga, diametri 2 sm ga boradi. Barglari cho'ziq nashtarsimon shaklda, ildiz yonida to'p barglar hosil qiladi. Qoqi o't bo'yi 5-30 sm gacha boradigan ichi kovak gulpoyalar chiqaradi, gulpoyalari bir nechta bo'ladi va uchiga tomon sal inchigka tortib boradi. Gullari sap-sariq bo'lib, diametri 3-5 sm keladigan yakka-yakka to'pgullar-savatchalar hosil qiladi. Mevasi kumushsimon – qo'ng'ir tusli mayda urug' urchuq shaklida bo'ladi.

Aprel-may oylarida gullaydi, may-iyun oylarida mevalari yetiladi.

Qoqi o't aholi yashaydigan joylarda, bog'larda, ekinzorlarda, ariq bo'ylarida, va nam yerlarda o'sadi.

Qashqadaryo viloyatidan tashqari, respublikamizning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Andijon va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi.

Umumiy tarqalishi: O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston, Xitoy, Hindiston, Amerika, Avstraliya.

Ximiyaviy tarkibi: Qoqi o'tning to'pgullari bilan barglarida triterpek spirtlar, vitamin S va B₁₂, shuningdek temir, kalsiy, ftor va boshqa moddalar bor. Ildizlaridan ham triterpek birikmalar – tarakseral, psevdotarakseral ajratib olingan. Bundan tashqari, qoqi o't ildizlarida inullin, kauchik, achchiq glyukozid, shilimshiq moddalar, yog'li moy organik kislotalar bor.

Ishlatiladigan organlari: ildizlari, ba'zida barglari bilan birga kavlab olinadigan ildizlari kuzda kavlab olinadi, barglari bilan ildizlari esa o'simlik gul chiqarmasidan ilgari bahorda yig'iladi.

Ta'siri va ishlatilishi: Xalq tabobatida qoqi o'tdan ishtaha ochadigan achchiq dorilar tayyorlash uchun ko'proq foydalaniladi. Bundan tashqari, qoqi o't siydik va o't haydaydigan, terlatadigan, balg'am ko'chiradigan, ichni yumshatadigan hossalarga ega. Qoqi o'tdan tayyorlanadigan galen preparatlardan kamqonlik, umuman quvvatsizlikda, nafas organlari kasalliklari, qandli diabetda, qorin damlab, qabziyat bo'lib yuradigan mahallarda, bavoil, sariq kasalligi, o't-tosh kasalligi va boshqalarda foydalaniladi.

Ibn Sino qoqi o'tning sutsimon shirasini jigar, taloq kasalliklari, istisqo davosiga ishlatgan, uni badanning so'gal toshgan, qadoq bo'lgan, ilon-chayon chaqqan joylariga surishni buyurgan. Chayon chaqqan joyga yangi qoqi o'tni mayin qilib ezib, malham qilib qo'ysa ham bo'ladi.

Zamonaviy tabobatda qoqi o'tning ildizi damlama va kukun holida ishtaha ochish, o't haydash va ichni yumshatish uchun qo'llaniladi. Uni umumiy darmonsizlik va ko'krak og'rig'i mahallarida ham buyuriladi. Qoqi o't preparatlari qondagi xolesterin miqdorini kamaytirishga yordam beradi, shuning uchun aterosklerozda ham foydali deb hisoblanadi.



2-rasm. Qoqi o't - *Taraxacum pseudoalpinum* Schischk

Bodom - Amygdalus comtmiiiis L. Amygdabs spinosissima Bge. O'zbekistonda bodomning 4 ta yovvoyi va 1 ta madaniy turi o'sadi. Kitob tumanining tog' va adir mintaqasida yovvoyi holda bodomning shu 2 turi o'sadi. Bodom ra'noguldoshlar oilasiga mansub bo'lib, bo'yi 2-5 ba'zan 8 metrga yetadigan daraxt. Bodomning o'q ildizi anchagina chuqur joylashgan bo'ladi. Barglari lansetsimon qirrali, bandi bilan shoxlariga ketma-ket o'rnashgan. Gullari oq yoki po'shti rangli, novdalarda yakka-yakka holda joylashgan. Xushbo'y gullari bargidan oldin yoki barg bilan bir vaqtda ochiladi. Bodom mart oyining o'rtalarida ko'karadi. Ko'karish bilan gulga kiradi. Gullashi aprel oyigacha davom etadi. Gultoji oq pushti rangda, lansetsimon oval shaklida bo'lib, uzunligi 7-10 mm. eni 3.5-4,5 mm bo'ladi. Gulning diametri 3,5-4 sm. Iyun-iyul oylarida mevasi pishadi. Mevasining shakli tuxumsimon lanset shaklida, ustki kalin tukchalar bilan koplangan. Bodomning ikki xil turi (achchik bodom va chuchuk bodom) uchraydi. Ularning faqat mag'izi (urug'i)ning achchiq va chuchukligiga qarab ajratish mumkin. Mevasi pishib yetilgandan keyin qoqib olinadi va donagini po'stidan ajratiladi. Tabobatda ishlatilishi. Xalq tabobatida achchiq bodom moyi astma, yo'tal, ko'krak og'rig'i, kuloq, qorin va o'pka kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Chuchuk bodom urug'ini qand bilan birga ezib quvvatsizlikda, uyqusizlikda, bosh og'riganda yo'tal va astmada yeyish foydali. Chuchuk bodom po'chog'i qaynatmasi qizamiq chiqqan bolalarga ichiriladi. Ibn Sino achchiq bodom urug'i va uning moyini qon to'purish, yo'tal, astma, o'pka bo'yрак hamda qovoq kasalliklarini davolash va qovuqdagi toshni chiqarish uchun ko'llagan. Ilmiy tibbiyotda bodom urug'i va uning preparatlari (bodom moyi, moyi emulsiyasi, chuchuk bodom urug'idan tayyorlangan emulsiya va achchiq bodom suvi) keng qo'llaniladi. Chuchuk bodom urug'idan tayyorlangan emulsiya me'da- ichak og'rig'nii qoldiradi. Bodom moyi esa terini yumshatadi va ichni yurishtiradi. Achchiq bodom urug'i kunjarasidan achchiq bodom suvi olinadi. Bu suv bemorni tinchlantirish va og'riq qoldirish uchun ishlatiladi. Farmatsevtikada bodom moyi ba'zan dorivor moddalarini (kamfora va boshqalarni) eritish hamda surtma dori tayyorlash uchun qo'llaniladi.

Qariqiz o'simligining ildizini bodom moyiga qo'shib damlab, so'ngra boshga surtilsa sochning to'qilishi anchagina kamayadi. Moyi ajratib olingan shirin bodomning turupi teriga qo'yilsa, uning rangi tiniqlashib, latif va chiroyli bo'ladi. Bodom moyi badan terisini yumshatish, sepkil. Husnbuzarlarni yo'qotish uchun ham ishlatiladi. Chuchuk bodom urug'i oziq-ovqat sanoatida ko'llaniladi. Bodom donagining mag'zida moy ko'p bo'ladi, shuning uchun ham undan qonditer sanoatida ko'p foydalaniladi. Xushbo'y, yoqimli hidli bo'lganligidan bir qancha shiravorlarga qo'shib ishlatiladi.

Bo'ymadaron - Achillea milefoliuni L. Murakkabguldoshlar oilasiga mansub bo'lib, viloyatimizning qir, o'tloq, yo'l yoqalari, bog'lar, tog' yonboshlarida va boshqa yerlarda o'sadi. Bo'ymadaron ko'p yillik, bo'yi 30-70 sm ga yetadigan o't o'simlik. Poyasi bir nechta, tik o'suvchi, yukori qismi shoxlangan. Bargi uch marta patsimon ajralgan, poyada bandsiz ketma-ket joylashgan. Barglari yashil rangli, ustki tomoni tukli. Gullari oqish, savatchaga to'plangan. Savatchalar o'z navbatida qalqonsimon to'pgulni tashkil etadi. Mevasi yassi, tuxumsimon, kul rang pista. O'simlik bizning sharoitimizda iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi yozning oxiri va kuz boshlarida pishadi.

Tabobatda ishlatilishi: Bo'ymadaron xalq tabobatida qadimdan qon to'xtatuvchi, yara bo'lgan va jarohatlangan joylarni, oshqozon ichak xastaliklarini, zotiljam, bosh og'rig'ini davolovchi, ishtaha ochuvchi, siydik haydovchi vosita sifatida ishlatilib kelingan. O'simlik gullarining ko'kuni, gijja tushiradi. Bo'ymadorondan buyrakdagi toshni tushirishda, nafas yo'li shamollaganda foydalanilgan. Abu Ali Ibn Sino o'simlikning o'ti ayniksa gullaridan tayyorlangan damlamalarni tarqab ketishi qiyin bo'lgan shishlar, lat yeyish, et uzilishi, bel og'rigi kabi kasalliklarni davosi sifatida hamda buyrak va toshlarini tushuruvchi omil sifatida ishlatgan. Ilmiy meditsinada bo'ymadaron o'simligi asosida tayyorlanadigan preparatlar oshqozon ichak xastaliklarini davolashda, ishtaha ochuvchi hamda qon to'xtatuvchi omil sifatida ishlatiladi. Bizning o'lkamizda bo'ymadaronning boshqa bir turi - Boshog'riq o'ti - (*Achillea Santoliiia L*) shifobaxshligi bilan mashhur. Bu o'simlik ham xalq meditsinasida oshqozon kasalliklarini, turli qon ketishlarni, o'pka silini davolashda ishlatiladi. Buning uchun o'simlikning yer ustki qismidan damlama tayyorlab ichish lozim. Abu Ali ibn Sino bu o'simlikning yer ustki qismidan, ayniqsa, gulidan tayyorlangai qaynatmani qaytishi qiyin bo'lgan shishlarga, et uzilganda va radikulit kasalligiga davo qiluvchi hamda siydik haydovchi, buyrak va siydik pufagidagi toshni tushiruvchi dori sifatida ham ishlatgan. Bulardan tashqari, nafas olish qiyinlashganda damlamadan ichishni buyurgan. Bo'ymadaron gulidan kosmetika sohasida keng qo'llaniladi. Undan tayyorlangan damlama bilan kompress qilinsa, kishi yuzidagi xusnbuzar, chipqon, sizlogich va boshqa toshmalarga malham bo'ladi. O'simlikdan olinadigan efir moylari sanoat ko'lamida tayyorlanadigan moy-upa, xushbo'y laseonlar tarkibiga qo'shiladi. Ular terni latiflashti-radi, rangini tiniqlashtiradi.

Dorivor gulhayri - *Althaea officinalis* L. Tibbiyotda gulhayrining quyidagi turlari ishlatiladi. Dorivor gulhayri - *Althaea officinalis* L; Oq gulhayri - *A. Nudiflora* Lincll; Pushti gulhayri - *A. Litvinavii* Hjin. Gulhayri turlari Gulhayridoshlar (malvaceae) oilasiga mansub bo'lib, bizning viloyatimizda dorivor gulhayri va pushti gulhayrilar uchraydi. Viloyatimizning tuqayzorlarida, botqoqliklarda, bog'larda, tog'larning yon bag'irlaridan tortib. o'rta qismigacha bo'lgan joylarda o'sadi. Dorivor gulhayrining bo'yi 60-180 sm bo'lishi mumkin. Poyasi tik, ko'p shoxlanmagai, gullari to'g'ri, 5 bo'lamlı, ikki jinsli, poyaning yuqorisidagi barglar yaxlit, tuxumsimon, o'rta va pastki qismidagi barglari uch, besh bo'lakli bo'lib, poyada ketma-ket joylashgan. Gullari pushti, oq, ba'zi turlari och binafsha rangli, asosan sariqroq bo'lishi mumkin, ular barg qo'ltig'iga, poya va shoxchalari uchiga joylashadi. Mevasi yassi, yumshoq, serurug', kuruq meva. Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi iyul-sentabrda pishadi. Gulhayrining ildizi, ba'zan bargi ishlatiladi. Bargini o'simlik gullaganda yig'iladi va soya yerda kuritiladi. Ildizi kuzda kavlab olinadi, tuproqdan tozalab, suv bilan yuvib, ochiq havoda quritiladi.

Tabobatda ishlatilishi: Abu Ali ibn Sino gulhayri ildizidan, bargidan va urug'laridan tayyorlangan damlama bilan yo'tal, qon to'purish, zotiljam va buyrak kasalliklarini davolagan. Buyuk tabib gulhayri ildizi asosida tayyorlangan dori darmonlarni ko'krakni yumshatuvchi, balg'am ko'chiruvchi omil sifatida tavsiya etgan.

O'rta Osiyoda xalq tabobatida gulhayri turlari ildizdan tayyorlangan damlama ko'k yo'tal, o'pka shamollashi, nafas qisim, ko'krak og'rig'i kasalliklarida yumshatuvchi. og'riq qoldiruvchi va balg'am ko'chiruvchi dori sifatida ishlatiladi. Bulardan tashqari, dizenteriya, buyrak yarasi kasalligida, tamoq yallig'langanda, bolalarning ichi ketganda ko'llaniladi.

Ilmiy tibbiyotda gulhayri turlarning dorivor preparatlari (damlama, suyuq ekstrat, sharbat) bolalarning nafas yo'llari kasalliklarida ta'sir etuvchi dori sifatida qo'llaniladi. Kub shaklda qirqilgan ildiz nafas yo'llari kasalliklarida ishlatiladigan turli yig'malar choylar tarkibiga kiradi.

Gulhayri o'simligining yer ustki qismidan dorivor preparat - mukoltin olingan. Bu preparat yuqori nafas yo'llari va o'pka yallig'lanishi kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi dori sifatida ko'llaniladi. O'simlik gulining damlamasi buyrak va qovoq kasalliklarida siydik haydovchi vosita sifatida ishlatiladi.

Gulhayri gul tojbargaridan teri, shoyi va jun matolarni bo'yashda foydalaniladi. Chunki gulhayri gulbarglari o'zida qizil, zangori hamda binafsharang bera oladigan malvidin pigment saqlaydi. Gulhayri ildizidan kleyster tayyorlash, o'simlikning poya va shoxchalaridan a'lo sifatli qog'oz hamda arqonlar tayyorlash mumkin. Gulhayri gullari arilar uchun yaxshi oziq hisoblanadi.

Gulhayridan damlama tayyorlash uchun birorta idishga 2 stakan miqdorda qaynatib sovutilgan suv qo'yiladi va uning ustiga 4 choy qoshiq maydalangan ildizidan solib 8 soat davomida qo'yib qo'yiladi. So'ngra suzib olib sharbatidan kuniga 3-4 mahal yarim stakan miqdorida ichiladi.

Guldan sifatli rang olinib, oziq-ovqat sanoatida ishlatiladi. U o'zidan xushbuy hid ajratadi.



3-rasm. Dorivor gulhayri - *Altbaea officiialis* L.



4-rasm. Dorivor gulhayri - *Althaea officinalis* L.

Zubtutum – *Plantago* L O‘zbekistonda zubtutumning quyidagi turlari shifobaxsh o‘simlik sifatida uzoq vaqtlardan beri ishlatib kelinadi.

Lansetsimon zubtutum(bargizub)-Plantago Lanceolata L, katta zubtutum- Plantago major L. Bizning viloyatimizda soy va ariqlar bo'ylarida, yo'l chetlarida, o'tloqlar va batqoqlangan joylarda, daryolar bo'ylarida, bog'larda, tog'larning o'rta qismigacha bo'lgan yalangaliklarda o'sadi. Zubtutum ko'p yillik, kalta va yo'g'on, ildizpoyali o't o'simlik. Gul o'qi bitta yoki bir nechta, buyi 10-70 sm ga yetadi. Bargi bandli, keng tuxumsimon ellipssimon, o'tkir uchli bo'ladi. Ba'zan pastki qismi sal tishli, uzunligi 12 sm gacha boradi. Gul barglari tik o'sadi, uchidan uzun boshqoqcha chiqaradi. Gullarni mayda, ko'rimsiz, gultojisi kulrang- qo'ngir tusli. Mevasi ichida tuxumsimon shaklli mayda-mayda urug'lar bo'ladigan ko'sakcha. May oyidan boshlab gullaydi, mevalari avgust-sentabrda yetiladi. Mevasi pishgan vaqtda yig'iladi va yanchib, elab tozalab, urug'i ajratib olinadi.

Ishlatiladigan organlari: Barg va urug'i.

Tabobatda ishlatilishi: Xalq tabobatida bu o'simlikdan me'da, ichak va o'pka xavfli o'smaliklariga davo qilish uchun foydalaniladi. Undan tayyorlangan galen preparatlar jigar, buyrak kasalliklari, diabet ko'z kasalliklari, qon ketar mahalida, shuningdek farzandsizlikda ham naf beradi. Ildizdan tayyorlangan damlamani isitma, yo'tal mahalida, sil bilan og'rigan kasallarga buyuriladi, zaharli hashorotlar va ilon chaqqanida og'riq qoldiradigan vosita tariqasida ishlatiladi. Yanchilgan urug'i surunkali ich ketarga yaxshi davo bo'ladi deb hisoblanadi.

Ibn Sino zubtutum barglaridan yara-jarohatlarni bitiruvchi, qon to'xtatuvchi vosita tariqasida foydalangan, urug'larini esa qon tuflash mahalida, jigar, buyrak kasalliklarida, shuningdek ichak yaralari va ich ketarga davo qilish uchun ishlatgan.

O'rta Osiyo xalq tabobatida zubtutumning ishlatiladigan o'rni ko'p, uni ichburug', bovosil, kolit, so'zak kasalliklarida buyuriladi. Urug'idan tayyorlangan qaynatmani bolalar ichi buzilganda beriladi, issiq tushiradigan vosita sifatida ishlatiladi. Yangi barglari chipqon va boshqa yara-chaqalarga quyiladi.

Ilmiy tabobatda bu o'simlikning barglaridan tayyorlangan 20% li ekstrakti yara-jarohatlar bitishiga yordam berib, yiring chiqishini kamaytirishi, to'qimalarning et olishini tezlashtirishi. arterial qon bosimini pasaytirib, tinchlantiradigan va uxlatadigan ta'sir ko'rsatishi aniqlangan,

Zubtutum urug‘lari qondagi qand miqdornii kamaytirib, ich ketarni bosish xususiyatga ega. Zubtutum bargidan tayyorlangan damlama ishtaha ochadigan, balg‘am ko‘chiradigan va dermatitlarga davo bo‘ladigan vosita tariqasida ovqatdan 15 minut ilgari 0,5 stakandan ichiladi.

Na‘matak (itburun) - *Rosa canina* L ning quyidagi turlari xalq va ilmiy tabobatda keng qo‘llaniladi:

1. Fedchenko na‘matagi - *Rosa Fecitschenkoana* Rgl; 2. Beggerina‘matagi-R. Beggeriano Schrenk; 3. Samarkand na‘matagi - *R. marakandica* Bge.

Na‘matak ra‘noguldoshlar oilasiga mansub bo‘lib, O‘zbekistonda yuqorida ko‘rsatilgan 4 turi ancha keng ravishda dorivor o‘simlik sifatida xalq va ilmiy tabobatda ishlatiladi.

Na‘matak (itburun) viloyatimizning bog‘larida, dalalarda, tog‘larning kurug‘ toshloq yon bag‘irlarida hamda tog‘larning o‘rta va yuqori qismidagi suv bo‘ylarida, archazor va yong‘oqzorlarda o‘sadi.

Na‘matak butasimon o‘simlik bo‘lib, ba‘zi turlarning bo‘yi 6 m gacha borish mumkni. Poyasi eguluvchan, tikonli. yaltiroq, ko‘ng‘ir-qizil, yosh novdalari bir oz yashil yoki qo‘ngir-yashil ranglidir. Barglari toq patli murakkab, poyada bandi bilan ketma-ket o‘rnashgan. Murakkab barglari tuxumsimon va arrasimon qirrali. Qo‘shimcha barglari bandi bilan birlashib ketgan ham bo‘lishi mumkin. O‘simlik gullari yirik, yakka yoki 2-3 tadan shoxchalarga o‘rnashgan. Gultoji oq, qizil, pushti, to‘q qizil, sariq bo‘lishi mumkin. Mevasi gul o‘rnidan tarkib topuvchi shirador soxta meva.

Na‘matak may oylaridan boshlab, butun yoz davomida gullaydi, mevasi esa iyul oylaridan to hozonrezgi davrigacha pishib yetiladi. Na‘matak mevalari turlariga qarab og‘irligi, rangi va katta-kichikligi novda po‘stlog‘ining ko‘rinishi, tikondorligi bilan farqlanadi.

Tabobatda ishlatilishi: Namatak mevalari xalq tabobatida qadim zamonlardan beri ishlatilib kelinadi. Uning mevalaridan tayyorlangan damlama o‘pka sili, jigar, o‘t qopchasining yallig‘lanishi, ichak, buyrak, qovuq kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Shuningdek, na‘matakning mevasi asosida tayyorlangan qaynatma qon to‘xtatuvchi. isitma tushiruvchi omil sifatida iste‘mol qilinadi.

Na‘matakning faqatgina gul va mevalarigina shifobaxsh bo‘lib qolmasdan, balki uning barglari asosida tayyorlangan qaynatma me‘da og‘riqlariga nafli hisoblanadi. Xalq meditsinasida hatto na‘matak ildizlaridan tayyorlangan qaynatma qovuq hamda buyrakka tosh kelib, og‘riq

berganda ichilsa kishiga anchagina yengillik berishi tan olingan. Bundan tashqari na'matak mevalari asosida tayyorlanadigan damlama qamqonlikda, shuningdek darmonsizlikda ijobiy natija berishini inobatga olish lozim.

Ilmiy meditsinada ishlatish uchun mevaning damlama, ekstrakt va sharbat. hamda tabletkalar, xolosas kabi dorivor preparatlar tayyorlanadi. Mazkur preparatlar avitaminoz xastaligini, aterosklerozni davolashda o't haydash maqsadida, tavsiya etiladi.

Na'matak mevalarining urug'idan olinadigan to'yinmagan yog' kislotalari. karotinoidlar, tokoferollar bilan ham turli kasalliklarni davolash mumkin.

Na'matak ayrim dorivorlar o'simliklarni ko'shib qaynatib, shifobaxsh damlama tayyorlash mumkin.

Na'matakning mevalari bilan qandolatchilik sanoatida mahsulotlar vitaminlashtiradi. O'simlikdan kosmetika mahsulotlari ham tayyorlanadi.



5-rasm. Na'matak (itburun) - *Rosa canina* L

Rovoch - Rheum L. O'zbekistonda 9 turi, Kitob tumanida esa 2 turi uchraydi. Shulardan 3 tasi xalq tabobatida shifobaxsh o'simlik sifatida ishlatiladi.

Rovoch - Rheum tataricum L;

Cho'l chuhyasi - Rheum Maximowiczii los;

Maksimovich rovochi (Rheum Maximowiczii los).

Viloyatimizning Zarafshon va Hisor tog' tizmalarining shag'alli yon bag'irlarida dengiz sathidai 900-1700 m balandlikda o'sadi.

Bu turkum torondoshlar oilasiga mansub bo'lib, ko'p yillik o'tlardir.

Maksimovich rovochi yo'g'on ildizpoyali ko'p yillik, bo'yi 100-120 sm ga yetadigan o'simlik bo'lib, poya asosini qo'ng'ir rang barg navi o'rab oladi. Poyasi bargsiz, juda ko'p so'galsimon bo'rtmali, ba'zan silliq, pastki qismi bir oz yalpaygan. qizg'ish rangli, yuqori tomoni sershox bo'lib, uchida piramidasimon to'pgullar hosil qiladi. Poyadagi barglari maydaroq bo'lib, kalta bandi bilan poyada ketma-ket joylashgan. Poyadagi barglari meva pishishi oldidan qurib qoladi. Barcha barglari yirik buyraksimon-yapaloq bo'lib, ularning uzunligi 18-50 sm, eni 20-60 sm ga tengdir. Gullari dasta-dasta bo'lib o'rnashgan, uzun bandli bo'ladi. Mevalari yirik, keng tuxumsimon, uzunligi 15-20 mm, eni 10-15 mm. Meva ichida yong'oqsimon to'q qo'ng'ir yoki qizil rangli urug'lar xosil qiladi. U may-iyulda gullaydi va urug'laydi.

Tabobatda ishlatilishi: Xalq tabobatida rovoch ildizi va mevasidan tayyorlangan qaynatma bilan isitma, me'da-ichak (ich ketish) kasalliklari davolanadi hamda ichki qon ketishini to'xtatish uchun ko'llaniladi. Rovoch ildizining sutda qaynatib tayyorlangan qaynatmasi me'da-ichak va yurak kasalliklariga davo qilinadi. Abu Ali Ibn Sino rovoch o'simligi bilan chechak, vabo, qizamiq kasalliklarini davolagan. Shuningdek rovoch ildizini ichak, buyrak, qovuq, bachadon og'riqlarini qoldiruvchi qon ketishini va ovqat hazmining buzilishi natijasida ich ketishini to'xtatuvchi dori sifatida ishlatgan.

Ilmiy tibbiyotda rovoch turlari ildizidan tayyorlangan ekstrakti ich ketish kasalliklarini davolash uchun ishlatish tavsiya etilgan. Rovochning poyasi, barg bandi, bargning asosiy tomiri ishtaha ochish uchun iste'mol qilinadi. Rovochdan sharoitga qarab aprel oyining boshlaridan iyul oyigacha foydalanish mumkin, chunki bu davrda uning iste'mol qilinadigan qismlari (barg va poyalari) qotmagan va kishi organizmi uchun kerak bo'ladigan organik kislotalarga,

vitaminlarga va boshqa moddalarga boy bo'ladi. Mahaliy aholi ushbu o'simlikdan juda unumli ravishda foydalanadi. Ayniqsa, balg'am ko'chirishda maxalliy aholi tayyorlagan "tosh bosti" rovochi juda katga shifobaxshlik xususiyatga ega.

Tog'rayhon - Origanum tyttanthuin Goatscfa. Viloyatimizning tog'li tumanlarida, tog'larning pastki va o'rta qismidagi mayda toshli qiyalarda, chirindiga boy bo'lgan qo'ng'ir va qoratuproqlarda o'sadi.

Tog'rayhon labguldoshlar (labitae) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik bo'lib, tibbiyotda Mayda gulli tog'rayhon - Oiigayym fiitlhaitbiim ijoitesch, Oddiy tog'rayhon – O. vilgaie L singari 2 turning yer ustki qismi ishlatiladi.

Tog'rayhon bo'yi 30-60 sm ga yetadi. O'simlikning poyasi to'rt qirrali, yuqori qismi shoxlangan bo'ladi. Barglari tuxumsimon yoki cho'ziq uchi nishli, asosi keng, ponasimon ko'rinishga ega. Tog'rayhon gullari poyaning yoki novdalarning uch qismida deyarli bandsiz joylashgan bo'lib, ro'vaksimon shaklda to'pgulni tashkil qildi. Mevasi - to'rtta yong'oqcha. U iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi iyul-sentabrda pishadi. Tog'rayhon oshko'k va ziravor sifatidagina emas, balki shifobaxshligi bilan xalq orasida mashxur.

Ximiyaviy tarkibi: Tog'rayhon o'simligi tarkibida efir moyi, flovonoidlar, saponinlar oshlovchi va boshqa moddalar bor. Efir moyi asosan fenollardan termenlardan va boshqa birikmalardan tashkil topgan. Xalq tabobatida tog'rayhon damlamasi yo'tal, nafas qismini, o'pka sili, me'da-ichak kasallarida va boshqalarda ishlatiladi.

Tog'rayhonning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama suyuq ekstrakti va turli yig'malar-choylar tarkibida nafas yaxshilash, siydik va yel haydash uchun qo'llaniladi. Efir moyidan timol olinadi. timol og'iz shilliq qavatini dezinfeksiya qilish va tish og'rig'ini qoldirish hamda terining zamburug' kasalliklarni davolash, ba'zan gijjalarni tushirish uchun ishlatiladi. Timol tish og'rig'ini qoldiruvchi Gortman suyuqligi tarkibiga kiradi.

Tog'payxon turlarining damlamasidan xalq tabobatida uykusizlikka qarshi hamda tanadagi dog'larni yo'qotishda foydalaniladi. Damlama tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga 1 stakan qaynab turgan suv quyib, ustiga tog'rayhonning maydalangan yer ustki qismidan 15 gr solinadi va 2 soat damlab qo'yiladi. Keyin dalada suzib olinadi va kuniga 1 osh qoshiqdan 3-4 mahal ichiladi.

Tog'rayhon juda yoqimli hidga ega. Shuning uchun undan ziravor o'simlik sifatida har xil konservalar tayyorlashda, bodring, karam, pomidor, uzum, olma va tarvuzlarni sirkalashda hamda tuzlashda foydalanish mumkin. O'simlikdan vermut vinosiga, kvas va apoqlarga hid berishda hamda spirtsiz ichimliklar tayyorlashda foydalaniladi. Undan olingan efir moyi har xil atirlar, tish pastalarida ishlatiladi. Tog'rayhonning tarkibida 22% efir moyi, 6-8% tannid

moddasi organik kislotalar, mineral tuzlar hamda vitamin S va provitamin A juda ko'p miqdorda bo'ladi.

Yalpiz - Metha asiafica Boris. Yalpizning bizning vatanimizda *Suv yalpiz - Mentha arvensis L, Qalampir yalpiz - M. pipeiita L, Osiyo yalpizi - M. Asiatica Boiiss* turlari uchraydi. Yalpiz labryldoshlar oilasiga mansub bo'lib, ko'p yillik o't o'simlikdir. Bizning viloyatimizdagi nam yerlarda ariq bo'ylarida, adirlarda, tog' etaklarida boshlab o'rta qismigacha bo'lgan joylarda ko'plab o'sadi. Yalpizning poyalari oddiy yoki shoxdor, to'rt qirrali tik o'suvchi. tuklar bilan qoplangan. Bargi lansetsimon, yalpisimon yoki cho'zik, arrasimoni o'tkir uchli bo'lib, ular bandsiz yoki qisqa bandi bilan poychalarda qarama- qarshi joylashgan. Gullari poya uchida boshqosimon yoki halqasimon to'pgulni tashkil etadi. Mevasi tuxumsimon silliq, to'rta yong'oqcha iyun-avgust oylarida gullab, mevasi iyul-sentabrda pishib yetiladi. O'simlikning gullashidan oldin yoki gullaganda yer ustki qismi yig'ib olinadi va soya yerda quritiladi.

Tabobatda ishlatilishi: Xalq tabobatida yalpizning yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatma tish og'rig'i, og'iz qurishi, milk yallig'lanishini davolashda ishlatiladi. Yalpiz qaynatmasiga qand qo'shib tayyorlangan qiyom quyonchiqqa, o'simlik shirasi esa megren va sariq kasaliga davodir. Yalpiz sharbati qo'tirni davolashda yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Yalpiz balg'am ko'chiruvchi hamda nafas yo'llari kasalligining oldini oluvchi vosita sifatida ham ishlatiladi.

Abu Ali Ibn Sino yalpiz vositasida ichak og'riqlarini davolagan. Undan ovqat hazm qilishni yaxshilovchi, gijja haydovchi, qon to'xtatuvchi, qayt qilishni koldiruvchi vosita sifatida foydalangan.

Qalampir yalpizning o'zgacha hosiylari bor. U asab kasalliklarida tinchlantiruvchi (ipoxindriya, isteriya), oshkozon-ichak yo'li faoliyatini yaxshilovchi, tinka qurishi, xolsizlanishda, vabo va bod kasalliklarida organizmni mustahkamlovchi ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek yalpiz o't xaydash xususiyatiga ega. Yalpiz bavoil, shirincha (zolutuxa), raxit kasalliklarida foydali omillardan hisoblanadi.

Ilmiy meditsinada yalpiz preparatlaridan keng foydalaniladi. Farmatsevtika sanoatida uning tarkibidagi efir moyi, validol, korvalol, alemetin, enatin, anestezol, zelenin tomchisi, Traskov eritmasi kabi preparatlar tarkibiga kiritilgan bo'lib, bu preparatlar yurak toj qon tomirlarini tirishishiga (spazma) hamda yurak kasalliklari bilan og'rikan kishilarga tavsiya etiladi va tibbiy maksadlar uchun ishlatiladi.

Kungaboqar – Heliantus annus L. Kungaboqar 4 m gacha boʻy choʻzadigan bir yillik oʻsimlik. Ildizi koʻp shoxlanadigan oʻq ildiz. Poyasi yogʻochlanib boradigan boʻlib, oq tusli poʻkaksimon oʻzagi bor, odatda shoxlanmaydi, eng uchidan bitta yirik savatcha chiqaradi. Braglari yirik, bandli, navbatma-navbat joylashgan, barg yaprogʻi tuxumsimon shaklda boʻlib, uzunligi 30 sm gacha boradi, chetlari tishli qattiqqina tuklar bilan qoplangan. Toʻpgulli diametri 40sm gacha boradigan koʻp gulli savatcha, savatchasining chetidagi gullari och sariq rangda. Mevalari toʻrt qirrali yoki ikki tomoni qisilib kelgan, konussimon urugʻli meva.

Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevalari avgustda yetilib, sentabrda pishadi.

Oʻzbekistonning hamma yerlarida ekiladi.

Umumiy tarqalishi: Vatani Amerika. Dunyoning barcha mamlakatlarida yetishtiriladi.

Ximiyaviy tarkibi: Kungaboqar urugʻida 38% gacha moy, 19% gacha oqsillar, 27% uglevodlar, 2% gacha fitin, shuningdek limon, moy kislata va boshqa organik kislatalar: toʻpgulli va barglarida salantat kislata; chetki gullarida betalin, xolin va boshqa asoslar, flavonoidlar, karotin va boshqa birikmalar bor. Kungaboqar gul barglarida yana saponinlar, barglarida karotin va qatron moddalar ham topilgan.

Ishlatiladigan organlari: Savatchasining chetidagi gullari, barglari va urugʻlari.

Taʼsiri va ishlatilishi: Xalq tobobatida gullari, barglari va savatchalaridan tayyorlangan damlama, qaynatmalar, revmatizm, nevralgiya, radikulit, sariq kasalligi davosiga, shuningdek meʼda va yurak ogʻriqlari mahalida ishlatiladi. Gullarida tayyorlangan qaynatmadan gripp va oʻtkir respirator kasalliklarda ham foydalaniladi.

Barglari va gullarining ekstrakti ishtahani ochib ovqat hazmini yaxshilaydigan vosita tariqasida ham ishlatiladi.

Ilmiy tabobatda kungaboqarning toʻla-toʻkis oʻrganilgan emas. Lekin uning tarkibidagi yogʻlarning xolesterin almashinuvini yaxshilab, uning sintezi va tomirlar devoriga oʻtirib qolishini kamaytirishi aniqlangan. Baʼzi moddalar bilan zaharlanishda kungaboqar ularning kuchini kesadigan, ziddi zahar oʻrnini bosadigan oʻsimlik hisoblanadi.

Kungaboqar moyi teri kasalliklari klinikasida, ateroskleroz mahalida koʻp ishlatiladi. Undan har xil emulsiyalar tayyorlash uchun yaxshigina oʻrab oluvchi vosita tariqasida yoʻtal va meʼda ogʻriqlarida ham foydalaniladi, baʼzan uni surgi sifatida (30-40 ml dan) va oʻt pufagi ishini kuchaytiradigan vosita sifatida qoʻllaniladi.

Sariq gul, qushqo'nmas – Cnicus benedictus L. Juda sershox bo'lib o'sadigan bir yillik o'tsimon o'simlik, bo'yi 20-70 sm ga boradi, yopishqoq bo'ladigan tuklar bilan qoplangan o'qildizi bor poyasi to'g'ri o'sadi, ildiz yoni barglari cho'zinchoq bo'lib, bo'yi 20 sm gacha boradi, o'tkir tishli, poyasidan chiqadigan, barglari bandsiz. Gullari – mayda, naysimon poyasi va shoxlarining uchida yakka-yakka savatchalar bo'lib to'plangan, sarg'ish. Mevasi 8-10 mm uzunlikdagi sarg'ish-jigarrang urug', ustki tomonida kokili bor.

May-iyun oylarida gullaydi, iyun-iyul oylarida mevasi yetiladi.

Uylar va yo'l yoqasidagi begona o't bo'lib, tog' oldi zonalarida o'sadi.

Qashqadaryo viloyatidan tashqari Toshkent, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi.

Umumiy tarqalishi: O'rta Osiyo, Kavkaz, Yevropa, Kichik Osiyo.

Ximiyaviy tarkibi: Bu o'simlik kam o'rganilgan. O'tida 0.2% miqdorda knitsin degan sekviterpen laktoni, achchiq moddalar 5% atrofidaqatrolar, shuningdek shilimshiqlar, sterinlar, oshlovchi moddalar, efir moyi va vitamin S bor.

Ishlatiladigan organlari: o'simlik gullab turgan paytida yig'ib olinadigan o'ti.

Ta'siri va ishlatilishi: Xalq tabobatida qushqo'nmasdan saraton, sariq kasalliklarida, ovqat hazmi buzilib, me'da-ichak yo'lining ishi kuchayganda, podagra, ipoxondril kasalliklarida, shuningdek nafas yo'llari, buyrakning yallig'lanishi kasalliklarida, peshob qiyinlashgan mahallarda foydalanishadi. Xalq tabobatida o'simlik qaynatmasi yiringli yaralarni davolashda ishlatiladi.

Ilmiy tabobatda qushqo'nmas o'tidan tayyorlangan damlama va ekstraktini ishtaha ochish va ovqat hazmini yaxshilash uchun qo'llaniladi.

Bu o't tarkibidagi ta'sir ko'rsatuvchi modda me'da-ichak yo'lini kuchaytiradigan kinitsindir. Qushqo'nmas preparatlarining katta dozalari odamlarning og'zi achishiga, qusishiga, ichi surishiga va boshqa o't haydaydigan, terlatadigan, sklerozga qarshi hossalarga ega. Qaynatma va damlamalari sirtga ham ishlatiladi; chunonchi, chipqon chiqqan, kuygan joylarga, tomoqni chayish uchun qo'llaniladi.

Dastarbosh (Achillea filipendulina Lam) murakkabguldoshlar oilasiga mansub, buyi 60-85 sm ga yetadigan ko'p yillik o't. Ko'p poyali, yo'g'on, ariqsimon qirrali, tukli bezlarga ega. Barglari uzun, patsimon o'yilgan, yirik tishli bo'lakchalarga ega, pastki barglari bandli, yuqoridagilari esa bandsiz. Savatchasi 4-10 mm kattalikda, turli xil sondagi gullardan iborat

bo'lib, savatchasi novdaning uchlarida joylashgan. Gul o'rni 2-5 mm, silindrsimon, kul rang qora tuslidir. Bu o'simlik iyun-sentabr oylarida gullab, urug'i avgust-sentabr oylarida yetiladi. Dastarbosh viloyatning adir va tog' mintqasidagi ariq buylarida, daryo sohillarida, shag'al toshli, mayda toshli yon bag'irliklarda ko'plab o'sadi. U, dorivor hamda efir moyli o'simliklardan bo'lib, uning qiyom yoki sharbatidan oshqozon og'riqlarini hamda bavorilni davolashda foydalanish mumkin. O'simlik gullash davrida barglari tarkibida 0,24%, yer ustki qismida 0,19%, to'pgullarida 0,32, urug'lash paytida esa to'pgullarida 0,38% efir moyi saqlaydi. Bu moy och sariq rangli, yoqimsiz, o'tkir hidlidir. Efir moyi tarkibiii oktilen, pinen, borneol, kamfor, kamfen, murakkab efirli spirtlar tashkil etadi. Efir moyi, meditsinada keng qo'llaniladigan borneol va kamfaralarni olish manbai hisoblanadi.



6-rasm. *Dastarbosh*- *Achillea filipendulina* Lam

Itburun (Rosa canina L.). Ra'noguldoshlar oilasidan, bo'yi 3 m gacha yetadigan butadir. Shoxlari yoysimon tarvaqaylagan, qattiq tikanlari siyrak joylashgan. Aprel-may oylarida gullaydi. Mevasi iyul-oktabr oylarida pishadi. U jumhuriyatimizning tog' daryolari va jilg'alari qirg'oqlarida, bog'larda, yong'oqzorlarda va o'rmonlarda o'sadi. Xalq tabobatida meva qaynatmasi va damlamasi ichak faoliyati buzilganda va infeksiyalarda burishtiruvchi vosita sifatida, milk kasalliklarida og'iz chayish uchun ishlatiladi. Meva ekstrakti-xolosos xoletsistitda, sariq kasalligida, jigar hamda o't pufagining boshqa kasalliklarida qo'llaniladi.



7-rasm. Itburun (*Rosa canina* L.).

Arg'uvongul - Paeonia intermedia Sam. Bu ayiqtovondoshlar oilasiga kiruvchi, chiroyli gulli, bo'yi 60-100 sm ga yetadigan ko'p yillik o'simlikdir. O'simlikning barglari yirik, uzun bandli bo'lib, shu bandga bir necha kichik bandchali qirqilgan bargchalar joylashadi. Gullari ikki jinsli, yirik eni 6-12 sm, to'q qizil rangli, gulqo'rg'oni murakkab, tojibarglari 3-8 tagacha. U iyun-iyul oylarida gullaydi va mevasi iyul-avgust oylarida pishadi. Mevasi (ko'sagi) odatda uch bo'lakli barglardan iborat, ko'p urug'li, kattaligi 1-2 sm, sertuk, pishgach pastki tomonidagi chokidan yoriladi. Urug'lari oval shaklda bo'lib, qora va yaltiroq. Arg'uvongul Hisor va Farg'ona tog'larining dengiz sathidan 1500-2500 m gacha balandlikda bo'lgan mayda shag'al toshli yerlarida, daraxt va butalar tagida uchraydi. U o'zining go'zal tashqi ko'rinishi bilan kishilar diqqatini o'ziga jalb etadi. O'simlik bargida va gulida askorbin kislota, urug'ida 27% moy bor. Bu moy tibbiyotda oshqozon-ichak va asab kasalliklarini davolashda ishlatiladi. O'simlik tugunaklarida 10% qand, 60-70% kraxmal, glyukozid, tanid, silitsin va oz miqdorda alkaloid bo'ladi. Insonning salbiy ta'siri natijasida arg'uvongulning tabiiy maydonlardagi boyliklari so'nggi yillarda toborakamayib ketmoqda. U ajoyib manzarali o'simlik. Ildiz tugunaklari yordamida ko'paytirish juda oson. Shuni e'tiborga olib, uni kelgusida madaniylashtirish zarur.

Anjabor - Geranium collinum Steph. Yoronguldoshlar oilasiga kiruvchi bo'ii 60 sm keladigan ko'p yillik o't bo'lib, o'simlikning barcha qismi tuklidir. Bargi uzun bandli, buyraksimon, yuqorigilari deyarli o'troq, asosigacha 5-7 bo'lakli qirqilgan, eni 3-7sm, bo'laklar keng rombsimon yoki juda toraygan, uchidagisi chuqur qirqilgan, tuxumsimon, o'tkir yoki to'mtoq bo'lakchalidir. Bargining ustki qismi och yoki to'q yashil, tukli, ostki tomoni kul rang, deyarli tuksiz. Poya uchida ikki gulli gulband hosil bo'ladi. yon bargchalari 3-5 mm uzunlikda, bigizsimon. Qosachabarglari 7-8 mm kattalikda, oq yoki har xil rangli, cho'ziq, ba'zan cho'ziq-tuxumsimon, cheti pardasimon, qisqa tukchali. Tojibarglarining uzunligi 9-17 mm, eni 5-8 mm bo'lib, qoramtqr-pushti ranglidir. Urug'i 3 mm kattalikda bo'lib, bir oz cho'zinchoqdir. Anjabor iyul-sentabr oylarida gullaydi va urug'laydi. U tog' mintaqasining daryo qirg'oqlarida, buloq atroflarida sernam joylarda o'sadi. Anjaborning asosiy tabiiy zahirasi Zarafshon tizma tog'ining g'arbiy yon bag'irliklarida, dengiz sathidan 2300-3000 m balandlikda uchraydi. Olib borilgan tekshirishlar natijasida aniqlanishicha Anjaborning barglarida 18%, ildizpoyalarida 20% tanid moddasi bor. Ulardan farmatsevtikada tanin olish uchun foydalanish mumkin.

Mavrak - Salvia sclarea L. Labguldoshlar oilasidan, bo'yi 40-120 sm ga yetadigan ko'p yillik o'simlik. Poyasi juda ko'p, tik o'sadi. Yuqori qismi shoxlangan. Iyun-avgust oylarida gullaydi. Urug'i avgust-sentabr oylarida pishadi. Xalq tabobatida mavrak guli va bargi qaynatmasi yurak urishi tezlashganda, kam quvvatlikda, qovurilgan mevasi esa bolalar burni

qonaganda ishlatiladi. Meva talqonini yog'ga iylab yaraga qo'yiladi, o'ti xushbo'y, ovqatni hazm qilishda yordam beradi, buyrak kasalligida va issiq ko'tarilganda foydalaniladi. Mavrak O'zbekistonning tog'li yerlarida, ayniksa tog'laridagi toshli tuproqlarda, butazorlar orasida va dalalarda, quyi, o'rta mintaqalarda, cho'llarda ko'p o'sadi.

Qoraandiz - Inula helenium L. Murakkabguldoshlar oilasiga kiruvchi poyasi tik, jo'yakli, tukli, bo'yi 100-175 sm keladigan ko'p yillik o'tdir. Barglari juda yirik bo'lib, uzunligi 50 sm, eni 25 sm gacha; atrofi tishsimon qirqilgan, tukchalar bilan qoplangan bo'ladi. Qoraandiz iyun-iyul oylarida gullaydi va urug'i iyul-avgust oylarida pishadi. U tog' etaklaridan tortib, tog' mintaqasining o'rta qismigacha bo'lgan zax yerlarda, daraxt va butalar orasida uchraydi. Qoraandizdan juda qadim zamoilardai buyon O'rta Osiyo va Yevropa xalqlari turli maqsadlarda foydalanib kelgan. Abu Ali ibn Sino bu o'simlikning ildiz va barglaridan bod, bo'g'im og'riqlari va et uzilishini davolashda foydalangan. Halqimizning: Andiz bor joyda ot o'lmas deyishi bejiz emas. Xalq tabobatida hozirgi paytda ham qoraandiz ildizidan tayyorlangan kukun va sharbatlardan balg'am ko'chiruvchi, siydik haydovchi, haroratni pasaytiruvchi, qichima, ekzema, bavoril, sil kasalliklarini davolashda va gijja tushiruvchi dori sifatida, bargidan esa yaralarni davolashda foydalaniladi. Tibbiyotda uning ildizidan tayyorlangan dori oshqozon va yo'g'on ichak jarohatlarini davolashda ishlatilyapti. Qoraandiz manzarali va nektar (shira) ga boy o'simlik bo'lib, uning ildizidan gazmol bo'yashda ham foydalanish mumkin. Qoraandiz tarkibida organik moddalar, mineral tuzlar, S vitamini hamda efir moyi, 44% inulin, 6% tanid moddasi hamda birmuncha alkaloid va saponin moddalarining mavjudligi sababli u qimmatbaho dorivor o'simlik hisoblanadi. Bargida alantopikrin deb ataluvchi achchiq modda ham bo'ladi. Kuz faslida uning ildizida foydali moddalar miqdori ortadi. Demak, shu vaqtlarda uni foydalanish uchun yig'ishtirib olish maqsadga muvofiqdir.



8-rasm. Qoraandiz *Inula helenium* L.

Jiyda - Elaeagnus orientalis L. Jiydadoşlar oilasidan, bo'yi 3 m ga yetadigan daraxtdir. Tanasi qizg'ish-kul rang. Barglari tuxumsimon-cho'zinchoq yoki lansetsimon, uzunligi 1,5-5 sm, eni 7-20 mm, novdalarining uchi ko'pincha tikanli bo'ladi. yosh novdalarining usti va barglari kumushsimon-yaltiroq mayda g'uborlar bilan qoplangan. Jiyda may oyida gullaydi. Gullari mayda, ko'rimsiz kumushsimon-oq rangli, juda ham yoqimli hidlidir. Mevasi sentabr-oktabr oylarida pishadi. U maydaroq, uzunligi 1-2 sm ga yetadi. U kam et, usti qizg'ish-sariq tusda. Uning garkibida 60% ga yaqin qand moddasi bor. Shu sababli ham uning mevasi spirt sanoati uchun qimmatli xom ashyo hisoblanadi. Uning mevasidan kisel va kompotlar ham tayyorlash mumkin. Jiyda mevasidan mahalliy xalq dori (bolalarni ichi buzilganda qotiruvchi, qizamiqni birmuncha yengillashtiruvchi) sifatida foydalanadi. Jiydaning danagida moy ham ko'p bo'ladi. Uning yog'ochi qattiq bo'lganligidan turli qurilish materiallari sifatida keng foydalaniladi.

Choyo't - Hypericum perforatum K. Choyo'tdoşlar oilasiga kiruvchi, bo'yi 75 sm gacha bo'lgan ko'p yillik o't bo'lib, poyasi silliq, yuqori qismi shoxlangandir. Bargi tuxum cimon, to'pgullari cho'tkasimon-ro'vak yoki yumaloq-tuxumsimon shaklda bo'ladi. U adir mintaqasidan boshlab tog' mintaqasining o'rta qismigacha bo'lgan joylarda turli sharoitgch moslashgan holda uchraydi. Choyo't may-avgust oylarida gullaydi, iyul-sentabr oylarida esa urug'i pishadi. Choyo'tning shifobaxshligi juda qadimdan ma'lum. Shu sababli xalqimiz choyo't 99 dardning davosi deb bejiz aytmagan. Uning yer ustki qismidan jigar, oshqozon, shamollash kabi kasalliklarni davolashda hamda burishtiruvchi va siydik haydovchi vosita va bo'yoq sifatida foydalanganlar. Bu o'simlikning bargi, novda va to'pgullari, ayniqsa gullash davrida dori-darmonlik xususiyatiga ega bo'lib, ulardan tibbiyotda oshqozon-ichak, jigar, yo'tal, yara, zotiljam kasalliklarini davolashda, qon ketishini to'xtatishda dori-darmon (sharbat yoki preparat) sifatida foydalaniladi. Choyo'tdan antibakterial xususiyatga ega bo'lgan imanin hamda oqsilli preparat giptalbin tayyorlanadi. U shikastlangan to'qimani tiklaydi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, choyo'tdan olingan sharbat vena qon tomiriga yuborilsa, u yurak faoliyatini va qon bosimini yaxshilaydi, ishtahani ochadi, oshqozon-ichak ishini tartibga soladi. Bolgar xalq tabobatida choyo'tdan oshqozon shirasidagi kislotalilikni pasaytirishda, bo'g'im bodini, buvasil, ji- rap, buyrak kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Bu o'simlikdan Chexoslovakiyada ham nafas va oshqozon-ichak yo'llarida uchraydigan har xil kasalliklarni davolashda foydalaniladi. Choyo'tning bunday shifobaxsh bo'lishiga sabab, uning tarkibida turli kimyoviy moddalar bo'lishidir; chunonchi; 3,8-13% tanid, 14% smola, 12% shakar moddalari, 0,2-0,5% efir moyi, giprozid-glyukozid, flavon-giperin, giperitsin, psevdogiperitsin karotin, antotsian, organik kislotalar, mineral tuzlar va S, A vitamini bo'ladi.

Dalachoy - Hypericum scabrum L. Dalachoydoshlar oilasidan, bo'yi 30-35 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. Poyasi bitta yoki bir nechta, silliq. Iyul-avgust oylarida gullaydi. Urug'i iyul-sentabr oylarida pishadi. Xalq tabobatida dalachoyning qaynatmasi va damlamasidan buyrak, yurak, me'da-ichak yo'li kasalliklarida, yo'talda foydalaniladi. Yallig'lanishga qarshi antiseptik va organizmning tonusini oshiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Ichki organlardan qon ketganda to'xtatadi. Sirtidan yarani bitirish uchun ishlatiladi. Gijjani tushiradi va siydikni haydaydi, suyuq ekstrakti spazmolitik ta'sir ko'rsatadi. U jumhuriyatimizning tog' zonalarida ko'p o'sadi.

Marmarak - Salvia sclarea L. Labguldoshlar oilasiga kiruvchi, ko'p yillik o't bo'lib, bo'yi 50-100 sm keladi. Poyasi tik o'suvchi, qattiq, shoxlangan bo'lib, qalin tukchalar bilan qoplangan. Bargi bandli, yirik-tuxumsimon, asosi yuraksimon, ayniqsa pastki tomoni jingalak tuklidir. Guloldi bargchalari keng-tuxumsimon, bandsiz uchi o'tkir, deyarli pardasi- mon, oq yoki och qizil binafsha rangli bo'ladi. Gullari qisqa gulbandli, guloldi bargchalarining qo'ltig'ida 2 tadan o'rnavchan bo'lib, piramidasimon to'pgul hosil qiladi. Kosachabarglari 9-11 mm, jingalak va bez tukchalar bilan qoplangan, nayidan 1,5 marta qisqadir. Gultojibarglari och qizil binafsha rangli. Yong'oqchasi 2,5 mm, dumaloq, uch qirrali, och jigar ranglidir. Marmarak iyun-iyul oylarida gullab, urug'i iyul-avgust oylarida yetiladi. U, vohalarda, adir va tog' mintaqalarida ko'p uchraydi. Marmarakning barglari suyuq ovqatlarga, murabbolarga solib ishlatiladi. Uning quritilgan barglaridan turli xil konservalar tayyorlashda, araq, likyor ishlab chiqarishda foydalanish mumkin. Tibbiyotda marmarakdan nafas yo'llarida va ovqat hazm qilish a'zolarida sodir bo'ladigan ba'zi kasalliklarni davolashda foydalaniladi. Marmarak asosiy efir moyli o'simliklardan bo'lib, u xalq xo'jaligimizning ba'zi tarmoqlari uchun xom-ashyo manbai hisoblanadi. Undan olinadigan efir moyi parfyumeriyada, konserva sanoatida, vino ishlab chiqarishda va farmatsevtikada juda qadrlanadi. Shu sababli, efir moyiga bo'lgan talab yil sayin tobora oshib bormoqda. Marmarak shonlayotgan paytda uning to'pgullari tarkibida 0,38%, gullash paytida esa 0,31%, urug'i pishgan paytda 0,45-0,48% efir moyi bo'ladi. Efir moyi och sariq rangli, xushbo'y hidli, asosini borneol, sineol, pinen, tuyon moddalari tashkil etadi. Marmarak tarkibida efir moyidan tashqari, tanid moddalari, smola, fitonsid, A va S vitaminlari bo'ladi. Urug'ida esa 25-30% yog' bor. Bu yog' sifati jihatidan paxta moyidan qaraganda yuqori turadi. Marmarak yog'i tarkibida yod miqdori ko'p bo'lganligidan u tezda qurib qolish xususiyatiga ega. Undan yuqori sifatli alif moylari tayyorlash mumkin.



9-rasm. Marmarak - *Salvia sclarea* L

Tog'dastarbosh - Tanacetum pseudoachillea S. Winkl. Murakkabguldoshlar oilasiga mansub, bo'yi 50-100 (130) sm keladigan ko'p yillik o't. U ko'p poyali, serbarg, siyrak tukchali, faqat uch qismi shoxlangan bo'ladi. Bargi siyrak va uzun tukchali tuxumsimon ko'rinishda bo'lib, qo'sh patsimon qirqilgan, cho'ziq-ellipssimon arra tishlidir. Poyaning pastki va o'rta qismidagi barglari uzun bandli, yuqoridagilari esa o'proq, kichikdir. Savatchalari zich, yassi to'pgul shaklda bo'lib, o'rama bargi tuxumsimon yoki sharsimon. O'rama bargining bargchalari tuksiz, sariq rangli, uch qismi yashilroq bo'ladi. U iyun-avgust oylarida gullaydi, urug'i iyul-sentabr oylarida yetiladi. Tog'dastarbosh ariq bo'ylarida, daryo qirg'oqlarida, nam va salqin joylarda, daraxt taglarida uchraydi, ba'zan uncha katta bo'lmagan maydonlarni qiladi. AQShning Indiana shtatida tog'dastarboshning bargi koritsa va muskat yong'og'i o'rnini bosadi va go'shtli konservalar hamda likyorlarga hid berishda ishlatiladi. Germaniyada u gijjaga qarshi va har xil ichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Belgiya va Finlyandiya farmatsevtikasida tog'-dastarboshdan halqasimon gijjaga qarshi ishlatiladigan dori-darmonlar ishlab chiqariladi. Xalq tabobatida undan gijjaga qarshi va bosh og'riqni davolashda foydalaniladi. Tibbiyotda gijja tushirishda va zotiljam kasalliklarini davolashda, hasharotlarga qarshi kurashda qo'llaniladi. Germaniyada tarqalgan dastarboshlarning bargi va to'pgulidan iborat savatchalarida 0,2-0,7% efir moylari borligi aniqlangan. Farg'ona vodiysidagi Ko'ktosh soyidan terilgan tog' dastarboshlarning bargida 0,02-0,05%, gullab turgan savatchalarida 0,1-0,4% efir moylari borligi aniqlandi. Efir moylari sariq, yashilsimon, yashil-sariqsimon rangli, o'tkir Hidlidir. Uning asosini borneol, tuyon, tanatseton hosil qiladi. Bundan tashqari, tanatsetin achchiq moddasi, tanapeto-oshlov kislotasi, alkaloidlar, flavonoidlar va organik kislotalar bor. O'simlikdan parfyumeriyada kosmetika mahsulotlari, xushbo'y suvlar ishlab chiqarishda foydalaniladi

IV BOB. TABIIY O'SIMLIK XOMASHYOLARINI YIG'ISH, QURITISH VA SAQLASH BUYICHA TAVSIYANOMA

Adabiyotlar va maxalliy aholi bilan suhbatlar davomida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, xomashyo o'simliklarini yig'ish, quritish va saqlash masalalariga turlicha yondashiladi. Avvalo shuni asdan chiqarmaslik lozimki, har bir o'simlik o'zining usuli va rivojlanishi jarayonida nihoyatda turli-tuman ximiyaviy moddalar.birikmalar to'playdi. Bu moddalar dorivor,oziq-ovqat, bo'yoqbop, tola berish, vitaminli tannidli va hakazo xususiyatlarga aga xomashyo bir turdagi o'simliklarning yer ustki organlarida (poya, novda, barg, kurtak, gul, gul to'plami, urug'i, mevasi, changchisi va hakazo) yer ostki organlari (piyozi, tugunagi, ildiz poyasi) da hosil bo'ladi. Shu bilan birga o'simlik organlari turli-tuman organik birikmalar (efir moylari, tannid, sanonin, mo'm va hakazolar) ajratadi. Foydali o'simliklarni yig'ish uning tarkibidagi zarur moddalarni eng ko'p yig'ilgan davriga to'g'ri kelishi, quritish texnologiyasiga, yig'ish vaqtiga va usuliga alohida a'tibor berilishi lozim.

a) O'simlikning yer ustki organlari uning gullashi boshlanishi yoki to'liq gullagan davriga yig'ilishi maqsadga muvofik, chunki ko'pgina zarur moddalar o'simlikning gul davriga qo'p miqdorda to'planadi.

b) Yer ostki organlarini kuzda kovlab olingani ma'qul, chunki o'simlikning hosildorligiga zarar yetkazilmaydi, yoki agar zarur bo'lsa erta bahorda o'simlik o'yg'ongunga qadar kovlab olinadi.

O'simlikni ma'lum maqsad uchun yig'ib oluvchi shaxs adashmaslik uchun o'simlik turini anik bilishi, uning qaysi kismi (poyasimi, bargimi,gulimn yoki ildizimi) zarurligini, yig'ishning ang qulay vaqti, mahsulotning qancha kisini yig'ib olish va qancha qismini o'simlikni ko'payishi uchun koldirishni aniq bilishi lozim. Iflos yoki har xil kasalliklar bilan zararlangan o'simlikni terish kat'iy man atiladi. O'simlik tarkibida mavjud foydali moddalarning o'z xolida va tegishli miqdorda saqlanishi uchun uni to'g'ri va yaxshilab (meyorida) qo'ritilishi shart. Chunki o'simlikning noto'g'ri, tegishli talabga asosan quritilmasa undagi fermentlarning o'zgarishi bo'zilish natijasida dorining, bo'yoqning, efir moyning qiymati pasayadi yoki butunlay ishlatib bo'lmaydigan darajaga o'tadi. Kunduz kuni terilgan o'simlikni o'z holiga kechasi keltirib bo'lmaydi. Uni albatta qayta quritish, shamollatish yoki qog'oz o'rmini almashtirish lozim. Aks holda ular o'z xususiyatlatini yo'qotadi, uning turli xil organlarini birga joylashtirilishi yoki yig'ilish, bir qopchiqqa solinishi undagi fermentlarni buzilishiga sabab bo'ladi.

Yig'ilgan o'simlikda uning hamma foydali xususiyatlarini saqlanishi uchun quyidagilarga e'tibor berilishi lozim. Yig'ilgan mahsulotlarni punktga qaytish bilanoq

qismlarga ajratilishi va toza qog'oz yoki matoga tushalishi, tegishli qismlar tanlab olinishi va har xil hashoratlar, zamburug'lar yoki ahlatdan tozalanishi lozim. Yig'ilgan mahsulot yuvilishi yoki suvga botirilishi qat'iy man qilinadi. Quritish jarayonida harorat 30-60⁰ bo'lishi ma'qul, Haddan tashqari issiq harorat, salqinlik yoki juda keragidan past harorat foydali moddalarni bo'zilishiga sabab bo'ladi. Quyosh nuri tushib turgan joyda ildiz, ildiz poya, piyoz, meva va urug'lar qo'ritiladi. O'simlikning yashil qismini to'g'ridan-to'g'ri tashqarida quyosh nuri tushib turgan joyda quritish man qilinadi. Odatda o'simliklarning yer ustki organlari (bargi, poyasi, guli) quyosh nuri to'g'ri tushmaydigan soya joy yoki uyda quritiladi. Xomashyoning tayyorligi qanday aniqlanadi? Yashil barg shapalog'i va bandi sinovchan gul, poya va ildizlar yengillashadi, mevalar yopishish (shirali) xususiyatini yo'qotadi. Xomashyo kondidion (sotishga loyiq) ko'rinishda bo'lishi, ya'ni tabiiy tusi, hidi va mazasini saqlashi lozim. Xomashyo quruq, nam tushmaydigan, shamollatib turish imkoni bo'lgan binolarda saqlanishi lozim. Biror bir joyga transportirovka kilinadigan mahsulot zelenxoz sun'iy (selofan) xaltalarda emas, balki mahsus paxtadan yasalgan xaltalarda yoki yashiklarda, kartondan yasalgan qo'tilarda solinishi lozim. Qizil kitobga kiritilgan o'simliklar ular qay darajada qimmatli bo'lmasin yig'ish man qilinadi.

O'zbekiston o'simliklar dunyosining xilma-xilligi, turlarga g'oyat boyligining xalq xo'jaligidan muhim salmog'i va ular bilan Markaziy Osiyoda o'ziga hos o'ringa ega. So'nggi yillarda O'simlik va hayvonot olami genofondi institutida va Qarshi Davlat universitetining botanika kafedrasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasiga ko'ra, viloyatda 146 oilaga mansub 4500 ga yaqin yuksak o'simlik turlari borligi ma'lum.

Qashqadaryo viloyatida gulli o'simliklarning 137 oilaga, 1025 turkum va 1200 turga mansub o'simliklar mavjudligini aniqlangan. (Mustafayev 1982).

Quyida biz Qashqadaryo viloyatining cho'l, adir, tog' va yaylov zonalarida tarqalgan dorivor o'simliklarning ruyxatini keltiramiz. (Ilovaga qarang).

Achchiq bodom - *Amygdalus bucharica* Korsh

Bodomcha - *A. spinosissima* Bge

Bo'ymadaron - *Achilla millefolium* L

Kichik bo'ymadaron - *Achillea ptarmica* Steud

Gulxayri - *Althaea litvinovii* Hjin Afan

Gazanda o't - *Urtica dioica* L

Dalachoy - *Hypericum perforatum* L

Dastarbosh - *Achillea filipendula* Lam

Jambil - *Bunium persicum* (Boiss) Fedtsch

Zubtutum - *Plantago lanceolata* L

Itburun - *Rosa Kanina* L
 Kiyiko't - *Ziziphora persica* Bunge
 Maymunjon - *Rosa calsius* L
 Na'matak - *Rosa maracandica* Bge
 Otquloq - *Rumex confertus* Willd
 Pontik do'landa - *Crataegus pantica* S.Kosh
 Do'landa zardak - *C. Koralkovii* L Henru
 Ro'yan - *Rubia tinctorum* L
 Sachratqi - *Cichorium intybus* L
 Toron - *Polugonum diaristatum* Aitch
 Tog'rayhon - *Origanum tyttanthum* Contsch
 Takasokol - *Tragopogon paradoxus* S.Nikit
 Shotara - *Fumaria vaillantii* loisl
 Yalpiz - *Mentha asiatica* Boriss
 Qorazira - *Bunium capusii* Koral
 Qoraandiz - *Inula helemium* L
 Qiziltasma - *Polugonum aviculare* L
 Qizilpoycha - *Hupericum scabrum* L
 Arpabodiyon - *Pimpinella anisum* Caern
 Gulizardak - *Adonis turkestanica* Adolf
 Gazako't *Gentiana olivieri* Cris
 Yerchoy - *Geum (Orhurus) kokanieum* Rgl
 Yevvoyi piyoz - *Allium et Schmalh*
 Alqor - *Athamanta macrophulla* Eug Kor
 Po'rsildoq - *Colutea brachyptera* Summ
 Rovoch - *Reum maximowiczii* A. Los
 Sariandiz - *Inula grandis* Schrenk
 Sunbul - *Ferula Sumbul*
 Toshchiya - *Cerasus efthrofearpa*
 Marmarak - *Salvia spinosa* Nevski L
 Uchkat - *Lonicera nummlariipolia* L. et. Sp
 Shirinmiya - *Glucyrrhiza glabra* L
 Shirach - *Eremurus regelii* Vved
 Isfarak - *Delphinium semibarfatum* Bienert
 Qora zirk - *Berberis oblonga* Schneid

Qizil zirk - B, integerrima Bge

Qontepar - multifilda Biebersteinia

Kuchala - Arum Korolkovii DS Rgl

X U L O S A

Qashqadaryo viloyatida olib borilgan tadqiqot ishlarimiz natijasida quyidagi xulosalarga kelamiz.

1. Qashqadaryo viloyati o'simliklar dunyosi, jumladan dorivor o'simliklarga boyligi bilan alohida e'tiborga molik. Uning florasida 60 oila 700ga yaqin turkum 1200 ga yaqin o'simlik turi tarqalishi aniqlandi.

2. Kuzatishlarimiz natijasida viloyatda yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning 50 turi dorivor bo'lib, ilmiy meditsinada qo'llaniladi. Shundan 19 turi mahalliy xalq tomonidan shifobaxsh o'simlik sifatida tabobatda qo'llaniladi.

3. Kuzatishlarimizning ko'rsatishicha, keyingi yillarda dorivor o'simliklarni tartibsiz, rejasiz yig'ish natijasida bir qator o'simlik turlarning zahirasi kamaygan. Jumladan, andiz, rovoch, kiyigo't, zanjabil, zafaron, sunbul, zira, do'lana, ixroj, o'lmas o't, uchqat kabilar shular jumlasiga kiradi.

4. Viloyatning tabiiy boyliklariga nisbatan bunday munosabatni qonunbuzarlik deb hisoblaymiz. Shunday ekan viloyatimizda tarqalgan yovvoyi, foydali, jumladan dorivor o'simliklarni asrab avaylash, muhofaza qilish har bir kishining insoniy burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. Каримов И.А. “Ўзбекистон буюк келажак сари”. Тошкент. Ўзбекистон 1998 й.
2. Каримов И.А. “Ўзбекистон иқтисодий келажакларни чуқурлаштириш йўлида” Тошкент 1995 й.
3. Каримов И.А. “Биздан озод ва обод ватан қолсин” Ўзбекистон Тошкент 1994 й.
4. “Қашқадарё вилояти географияси” география ўқитувчилари учун қўлланма. Қарши 1994 йил.
5. А.Ҳамидов, М.Набиев, Т.Одилов “Ўзбекистон ўсимликлари аниқлагичи” Тошкент “Ўқитувчи” 1987 йил.
6. Қ.Ҳ.Хожиматов, Қ.И.Йўлдошев ва бошқалар “Шифобахш гиёҳлар дарахтлари” Тошкент “Ўзбекистон” 1995 йил.
7. Холматов, Х.Ҳабибов “Ўзбекистоннинг доривор ўсимликлари”. Тошкент 1972 йил.
8. Гранитов И.И., Пятаева А.Д., Александрова Э.И. “Растительность” Кашкадарьинская область 1958 г.
9. Набиев М.М. «Ботаника атлас-руководство» Тошкент 1969 й.
10. Закиров П.К. “Классификация растительности Средней Азии” Узб. Биол. Журн. 1989 г.
11. Пратов У.П. “Ўзбекистон юксак ўсимликларининг замонавий тизими” Тошкент 1995 й.
12. Черепанов С.К. “Сосудитые растения СССР” Наука 1981 г.
13. Хожиматов К., Аллаёров М. “Ўзбекистоннинг шифобахш ўсимликлари ва уларни муҳофаза этиш”.
14. Кудряшев С.К. Плодовые Шахрисабза Т. 1-2 т. 1950 г.
15. Сохобиддинов С.С. Дикорастущие лекарственные растения Средней Азии. Гостиздат. УзССР Ташкент 1948 г.
16. Набиев М., Шальёнов В., Иброҳимов А. Шифобахш неъматлар Тошкент “Меҳнат” 1989 й.
17. Мурдахоев Ю. Ўзбекистонда ватан топган доривор ўсимликлар “Фан” Ташкент.
18. Холматов Ҳ.Ҳ., Ҳабибов З.Ҳ., Олимхўжаева Н.З. “Ўзбекистоннинг шифобахш ўсимликлари” Тошкент Ибн сино номидаги нашриёт 1991 й.
19. Каримов В., Шомахмудов А. Халқ табobati ва замонавий илми тибда қўлланиладиган шифобахш ўсимликлар. Тошкент Ибн сино номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси 1993 й.

20. С.М.Мустафаев «Лекарственные растения Сурхандарьинской области»
Ташкент 1963 г.

21. С.М.Мустафаев «Основные черты растительного покрова бассейна р.
Кашкадарьи» Ташкент 1974 г.